O‘zbekiston va butun dunyo bo‘ylab ishga joylashish

Maktab bitiruvchilarining ishga joylashish imkoniyatlari bo‘yicha qo‘llanma

Mundarija

So‘z boshi

Qo‘llanmadan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar

1. Karyerangizni boshlash uchun tavsiyalar
   - 1.1. Qaysi yo‘lni tanlaysiz?
   - 1.2. O‘zingizni anglang
   - 1.3. Harakatni boshlang
   - 1.4. Ishga joylashish jarayoni

2. Kasbga moyillikni aniqlashda shaxs va motivatsiya testlari
   - 2.1. Shaxsiyat testi
   - 2.2. Motivatsiya testi

3. Akademik sohaga bo‘lgan moyillik
   - 3.1. Nega akademik soha muhim?
   - 3.2. Akademik sohada karyera
   - 3.3. Professional karyera qilish bosqichlari
   - 3.4. Universitetlarga topshirishda tayyorgarlik
   - 3.5. O‘zbekistondagi faoliyat yuritayotgan OTM
   - 3.6. OTM da o‘qish uchun ta’lim krediti olish imkoniyatlari
   - 3.7. Xorijiy universitet diplomining nostrifikatsiya qilish tartibi
   - 3.8. Xorijda ta’lim imkoniyatlari OTM

4. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish
   - 4.1. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash tartibi
   - 4.2. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda ko‘maklashuvchi tashkilotlar

5. Qisqa muddatli ta’lim va kasb-hunar o‘rganish kurslari
   - 5.1. Xalqaro onlayn kasb-hunar va ta’lim resurslari
   - 5.2. O‘zbek tilidagi kasb-hunar va ta’lim resurslari
   - 5.3. Oflayn kasb-hunar va o‘quv markazlari
   - 5.4. Tashqi migratsiya imkoniyatlari
   - 5.5. O‘zbekistonda mehnat bozori
   - 5.6. Hunarmandchilik bo‘yicha kasb yo‘nalishlari
   - 5.7. Farg‘ona vodiysidagi faoliyat olib borayotgan hunarmandchilik markazlari
   - 5.8. Boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari

6. Ishga joylashish va ish faoliyatidagi tavsiyalar
   - 6.1. Ishda muvaffaqiyat qozonish uchun sizga kerak bo‘ladigan 10 ta asosiy ko‘nikma
   - 6.2. CV/rezyume yozish bo‘yicha tavsiyalar
     - CV va Rezyume o‘rtasidagi farq
     - CV/rezyume tarkibi
   - 6.3. Suhbatga tayyorgarlik ko‘rish
     - Suhbatdan o‘tish uchun muhim tavsiyalar
     - Muvofiq tashqi ko‘rinish
   - 6.4. Qidiruv tizimlaridan samarali foydalanish uchun tavsiyalar
     - Google qidiruv tizimidan samarali foydalanish
   - 6.5. Raqamli savodxonlik ko‘nikmalari
   - 6.6. O‘zbekistonda ish topish imkoniyatlari
   - 6.7. Ish takliflarini baholash shkalasi
   - 6.8. Oylik ish haqi byudjetini tuzish

7. Mehnat munosabatlari va qonunchilik

Ilovalar

Global kasblar karyera yo‘nalishlari

Global kasblar tavsifi

Glossariy

Foydalanilgan manbalar



So‘z boshi

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi" DUK hamda YUNESKO o‘rtasida 2021 yil 30 aprelda imzolangan 235UZB1000-“Yoshlar Farg‘ona vodiysida ijtimoiy-totuvlikda” loyihasi doirasida "O‘zbekistonda hamda global miqyosda ish topish" nomli qo‘llanma shakllantirish bo‘yicha bitim imzolangan. Mazkur loyiha doirasida Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi maktab o‘quvchilari ishga joylashish imkoniyatlari, kasbiy layoqatlilik testlari hamda dolzarb kasblar to‘g‘risida batafsil ma’lumot va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Mazkur qo‘llanma umumta'lim maktablarining 7-8-9-10-11 sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan har bir o‘quvchi o‘z yoshiga, bilim darajasiga, qobiliyatiga, kasbiy moyilligi va imkoniyatlariga mos ravishda kasbga bo‘lgan qiziqishini aniqlashga yordam beradi.

Qo‘llanmadan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Qo‘lingizdagi mazkur “Maktab bitiruvchilarining ishga joylashish imkoniyatlari bo‘yicha qo‘llanma” maktab bitiruvchisi yoshiga yetgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undagi interaktiv ko‘rsatmalar, foydali tavsiyalar va maslahatlar, kasblar haqida ma‘lumotlar siz uchun tushunarli va sodda tilda, grafik rasmlar tushuntirish uchun taqdim qilinmoqda.

Mazkur qo‘llanma interaktiv raqamlashtirilgan veb-platforma bilan birlashtirilgan bo‘lib, undan samarali foydalanish uchun internetga ulangan holda smartfoningiz yordamida sahifalardagi maxsus “QR - Code”larni skaner qilish ilovasi orqali yanada batafsil ma’lumotlarga ega **prof.maktab.uz** veb-platformasiga o‘tib tanishib chiqishingiz mumkin.

Shuningdek, mazkur qo‘llanmaning elektron PDF format versiyasini **prof.maktab.uz** platformasidan yuklab olishingiz mumkin.





1.1. Qaysi yo‘lni tanlaysiz?

Kelajakda qanday kasb egallash haqida o‘ylash dolzarb mavzu bo‘lib, ammo faqat o‘ylash bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Maktabda qaysi fanlarga e'tibor qaratish, kasb-hunar kollejimi yoki akademik litsey, balki o‘z qiziqishlaringiz va iste'dodlaringiz bo‘yicha yo‘nalish tanlashingiz kerak. Kasb tanlashda yagona qaror sifatida emas, balki jarayon sifatida yondoshgan ma'qul. Buni sayohat deb tasavvur qiling, bu sayohat davomida esa siz turli xil ta'sir qiluvchi omillarga duch kelasiz.

1. Karyerangizni boshlash uchun tavsiyalar — 5-8 betlar

2. Kasbga moyillikni aniqlashda shaxs va motivatsiya testlari — 9-11 betlar

3. Akademik sohaga bo ‘lgan moyillik — 12-19 betlar

4. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish — 20-21 betlar

5. Qisqa muddatli ta’lim va kasb-hunar o ‘rganish kurslari — 22-28 betlar

6. Ishga joylashish va ish faoliyatidagi tavsiyalar — 26-35 betlar

7. Mehnat munosabatlari va qonunchilik — 36-38 betlar




1.2. O‘zingizni anglang

Barchamiz o‘z qiziqishlarimiz, ko‘nikmalarimiz va qadriyatlarimizga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanamiz. Yaxshi kasb egasi bo‘lish uchun nafaqat sizni qiziqtiradigan ish, balki ko‘nikmalaringiz, shaxsiy fazilatlaringiz, motivatsiya va xarakteringiz haqida o‘ylashingiz lozim. Ushbu fikrlar kelgusidagi ta’lim va ish tajribangizni rejalashtirishga, rezyumeingizni boyitishga hamda karyerangizga oid qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.



Qaysi fanlarni yoqtirasiz

Maktabda qaysi fanlar sizga yoqadi? Qaysi birini yaxshiroq bilasiz? Sizga eng yoqadigan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishni qanday yaxshilash mumkin?



Yana qanday qiziqishlaringiz bor?

Siz sport bilan shug‘ullanasizmi? Sport kabi musobaqalarda qatnashish va unda muvaffaqiyat qozonish, boshqalar bilan yaxshi ishlash qobiliyatingizni namoyish etadi. Ko‘p odamlar sevimli mashg‘ulotlariga ega bo‘lib, ularning ayrimlari sevimli kasbga aylanib ulgurgan. O‘zingizning sevimli hobbi va qiziqishlaringizni ish jarayonida qanday qilib qo‘llash mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.



Sizga nima motivatsiya beradi?

Hayotingizdagi eng muhim narsa nima? Siz shon-shuhrat, oliy maqom va yuqori daromad olishni xohlaysizmi yoki jamiyat a’zolariga yordam berish sizga ko‘proq maroq bag‘ishlaydimi? Hayotingizda to‘siqlar va qiyinchiliklarni yengib o‘tish muhim-mi yoki barqarorlik afzalroq-mi?



Qanday ko‘nikmalarga egasiz?

Maktabda va undan tashqaridagi faoliyatingizda qanday ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring. Balki siz kreativ, kommunikativ yoki IT sohasida ilg‘or ko‘nikmalarga ega bo‘lishingiz; balki muammolarni yechishda usta bo‘lishingiz yoki mohir qo‘llaringiz bilan ajoyib narsalar yarata olishingiz mumkindir.



Qanday sharoitga egasiz?

Siz ma'lum bir joyda, masalan, oilangiz va do‘stlaringiz yaqinida ishlashni xohlaysizmi? Balki sog‘lig‘ingizga ta'sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar bordir? Siz tanlagan sohada o‘qish va malaka oshirish xarajatlari qancha? Balki siz ularni o‘tishga sharoitingiz to‘g‘ri kelmas?



Qanday kasbiy va shaxsiy sifatlarga egasiz?

Biror kasbni egallash uchun yangi ko‘nikmalarni o ‘rganishingiz mumkin bo’lsa-da, shaxsiy sifatlaringizni o‘zgartirish ancha qiyin. Siz haqingizdagi fikrlarni bilib oling. Shaxsiy sifatlarni aniqlovchi psixologik testlarni ishlab ko ‘ring. Sifatlaringizga mos keladigan kasbni tanlash karyerangizni qurishda va samarali xodim bo‘lish ehtimolini oshiradi.

1.3. Harakatni boshlang

Qanday shaxs ekanligingiz, nimalarni yaxshi bilishingiz va qaysi turdagi ish bilan shug‘ullana olishingizni anglab olganingizdan so‘ng siz ta'lim olish, rivojlanish va kasblar dunyosini o‘rganishga kirishishingiz mumkin. Ushbu platformadagi kasb profillari bilan tanishib chiqing; ular sizga mavjud va dolzarb kasb turlari haqida ma’lumotlar berib, dunyoqarashingizni kengaytirishga va yangi imkoniyatlar haqida bilimga ega bo‘lishga yordam beradi.

Harakatni boshlang

O'zingiz erishmoqchi bo‘lgan kasbni tanlaganingizdan so'ng, ish beruvchilar nazariga tushish uchun bir nechta qadamlarni bosib o‘tishingiz mumkin.

Maqsadlar qo‘ying

Hayotingizda nimaga erishmoqchi ekanligingiz va erishmoqchi bo‘lgan maqsadga yetishish uchun qisqa muddat ichida nimalar qilishingiz kerakligini aniqlang.

Maslahat so‘rang

Sizni qiziqtirgan kasb yoki soha haqida ma’lumotlar izlang. Mavjud imkoniyatlar to'g'risida do'stlaringiz, oila a’zolaringiz, o'qituvchilaringiz bilan suhbatlashing yoki mazkur kasblar qo‘llanmasi bilan tanishib chiqing.



Volontyor bo‘ling va tajriba orttiring

Vaqtingizni biron kompaniya, notijorat tashkiloti yoki boshqa firmaga taklif qiling. Siz tanlagan soha bo‘yicha amaliyot o‘ting yoki shogirdlikka tushishga harakat qiling. Bu sizga qimmat tajribaga ega bo‘lishga va qimmatli tanish aloqalari o‘rnatasiz.

Ish beruvchilarni o‘rganing va aloqa o‘rnating

Tanlangan soha bo‘yicha eng yirik ish beruvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bilib oling. Karyeralar ko‘rgazmasi yoki ochiq eshiklar kuni o ‘tkazilishi haqidagi e’lonlardan xabardor bo‘ling. Kompaniyalar bilan bog‘lanish uchun internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalaning.

Onlayn brendingizni yarating

LinkedIn, Facebook va sohaga oid tarmoqlar saytlarida o‘z profilingizni yarating va faol foydalaning.

Ta’lim va rivojlanish

Aniq bir kasb egasi bo‘lish uchun qanday bilimlar va ko‘nikmalarni o‘rganish kerakligi haqida iloji boricha ko'proq izlaning.


1.4. Ishga joylashish jarayoni

Ish beruvchilarga o‘z mahoratingiz, iste'dodingiz va tajribangizni yozma ravishda (CV / rezyume) yoki shaxsan namoyish etish har qanday ishga joylashish muvaffaqiyatining muhim qismidir. Ish izlashdagi chuqur tadqiqot va yaxshi ko‘rilgan tayyorgarlik – e’lon qilingan bo‘sh ish o‘rinlariga topshirishda va suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tishning kalitidir.

Mahoratingiz va yutuqlaringizni tasvirlash uchun ishlatadigan so‘zlarni yaxshilab o‘ylab tanlang. Lavozim tavsifida yoki rasmiy ish tilida foydalaniladigan so‘zlarni yoritishga harakat qiling. (Misol: mas’uliyatli xodim, jamoa bilan ishlash qobiliyatiga ega)

Ish beruvchi haqida bir qancha onlayn tadqiqotlar o‘tkazish uchun Internetdan foydalaning. Ular nima bilan shug‘ullanishadi? Ularning boshqalardan ajralib turadigan jihati nima? Ushbu sohaning bozorida nimalar sodir bo‘lmoqda?

Ish tavsifini diqqat bilan o‘qib chiqqaningizga ishonch hosil qiling. Ish beruvchilar odatda ish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni belgilaydilar, shuning uchun rezyumeingiz aniq ish talablariga javob berishiga ishonch hosil qiling.



Barcha ish beruvchilarga bir xil standart CV/rezyumeni yubormang. Har bir ish beruvchi qanday ishchi qidirayotganligi haqida o‘ylang va ushbu sohada siz erishgan muvaffaqiyat dalillarini kiritishga harakat qiling.

Suhbatga taklif

1.4. Ishga joylashish jarayoni


Ish beruvchilarga o‘z mahoratingiz, iste'dodingiz va tajribangizni yozma ravishda (CV / rezyume) yoki shaxsan namoyish etish har qanday ishga joylashish muvaffaqiyatining muhim qismidir. Ish izlashdagi chuqur tadqiqot va yaxshi ko‘rilgan tayyorgarlik – e’lon qilingan bo‘sh ish o‘rinlariga topshirishda va suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tishning kalitidir.

Suhbatga puxta tayyorgarlik ko‘rganingizga ishonch hosil qiling. Hayajonlanish bu tabiiy hol, shuning uchun xotirjam bo‘lish usullarini toping: musiqa tinglashingiz yoki nafas olish mashqlarini bajarishingiz mumkin.

Suhbatga doim yaxshi, ozoda kiyingan bo ‘ lishingiz kerak. Bu har doim ham kostyum-shim kiyishni anglatmaydi; tashkilot kiyinish uslubiga mos kelishga harakat qiling.

Suhbatda eng ko ‘ p so ‘ raladigan savollariga javoblar tayyorlang, masalan: "O'z haqingizda gapirib bering"; "Nima uchun aynan shu kasb sizni qiziqtiradi?"; "Nima deb o ‘ ylaysiz, ushbu ish siz uchun mosmi?“

Suhbatga borishdan avval CV/rezyumeingizni ko ‘ rib chiqing. Ish beruvchiga namoyish qila oladigan ko ‘ nikmalar va malakalar haqida aniq ma'lumot bering. Oldingi yutuqlaringiz haqidagi misollarni oldindan tayyorlab qo ‘ ying.





Ishga joylashish

HAYOTINGIZDA QIYINCHILIKLARGA DUCH KELISHDAN QO‘RQMANG

Maqsad - muvaffaqiyat kaliti. Maqsadni aniq belgilab olish marraga erishishning yarmidir. Amalga oshirmoqchi bo‘lgan maqsadlaringizni ro‘yxatini tuzing va unga erishish yo‘llarini o‘rganib chiqing.



Vaqt orqaga qaytmaydi. Shuning uchun har bir daqiqadan unumli foydalanishga harakat qiling. Vaqt sizni muvaffaqiyat sari yetaklaydigan xazinadir, Uning har bir lahzasidan oqilona foydlanishingiz kerak.

Noumidlik - muvaffaqiyatga erishishga to‘sqinlik qiluvchi birinchi raqamli dushman. Umidsizlikdan qutulish uchun o‘z imkoniyatlaringiz va qobiliyatlaringiz haqida tafakkur qilishingiz lozim.

Izlanish - maqsadga yetishishning eng asosiy yo‘llaridandir. Muvaffaqiyatga erishgan insonlarning ta'kidlashicha, omadning 95 foizi muntazam va davomli mehnatdir.

2.1. Shaxsiyat testi

Kasbga moyillikni aniqlashda ko‘pgina psixologik testlar mavjud. Mazkur qo‘llanmada keltirilgan materiallar Jim Barretning “Qobiliyat, shaxsiyat va motivatsiya testlari. Iste'dodingiz va shaxsiyatingizni tahlil qiluvchi va karyerangizni aniqlovchi testlar to‘plami” kitobidan foydalanilgan. Jim Barrett -psixolog va maslahatchi, ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lib, kasb tanlash tartibi va baholash tizimlari bo‘yicha maslahatlar beradi.

Bu test quyidagilarni o‘ylab ko‘rishga yordam berish uchun mo‘ljallangan:

1) sizning ish uslubingiz qaysi kasblarga ko‘proq mos kelishi, sizning yangi, turli ish sohalariga qarab qanday "o‘sishingiz" yoki "o‘tishingiz" mumkinligini ko‘rsatishi mumkin;

2) sizning xulq-atvoringizni tushunishga yordam beradi, jamoaning a'zosi sifatida harakat qilish, boshqalar bilan ishlashga yordam beradi.

Shaxs parametrlari

So – SOLITARY - individuallik



O‘z-o‘zini taminlay oladi. Faqat o‘ziga ishonadi. Tashabbus ko‘rsata oladi. Xotirjam yoki qo‘rs odam sifatida qabul qilinishi mumkin. Keyingi variantda esa – «autsayder». Hamma narsani o‘z hohlaganidek qiladi. Jamiyatda o‘zini yaxshi his qilishi mumkin, lekin ba’zan uyatchan. Muloqot qilishi qiyin. Befarq va maqsadga intiluvchan. Mustaqil ravishda o‘ylaydi. Topqir. "Arzimagan narsalar" haqida gapirishni yoqtirmaydi.

G – GREGARIOUS - kirishimlilik



Boshqalarga moslashadi, sardor bo‘lishi shart emas. Kompaniyani afzal ko‘radi. Yolg‘iz qolishni yoqtirmaydi. Sadoqatli, qo‘llab-quvvatlovchi. Boshqalarning jamoaga yaqinroq qabul qilishini istaganligini inobatga olgan holda boshqa insonlarga tezda ishonadi. Vaziyatga qarab xatti-harakatini o‘zgartiradi. Odamlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qiladi. Ommaviy tadbirlarda qatnashishni va boshqa odamlar bilan birgalikda qaror qabul qilishni yoqtiradi.

A – ASSERTIVE - ishonchlilik



Agressiv. Dominant va o‘jar bo‘lishi mumkin. O‘zini serg‘ayrat deb biladi. Ovozini ko‘tarib gapirishi mumkin. Qat’iyatli, bazan tavakkalchi, xohlagan narsasiga erishadi. Boshqalarning nafsoniyatiga tegishi mumkin. Ba’zan “quruq savlat" sifatida qabul qilinadi, ammo shu bilan birga o‘ziga nisbatan hurmat uyg‘otadi.
Ko‘pincha boshqalarning reaksiyalarini sezmaydi. Tanqidchi. Talabchan. Javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

P – PASSIVE - passivlik



O‘z fikrini bildirmaslikni afzal ko‘radi. Ko‘proq o‘zi istab emas, ko‘nganidan rozi bo‘ladi. U bilan kelishish oson. Ko‘pincha yaxshi jamoa a’zosi. Oson moslashadi, kamdan-kam hollarda jahli chiqadi. U o‘z nuqtai nazarini bildirishdan qochishi mumkin. Qarama-qarshiliklardan qochadi. Har doim birovlarga yoqishga harakat qiladi. Hamkorlikni yaxshi ko‘radi, izzat-ehtiromli, doim yordam berishga tayyor.

Sp – SPONTANEOUS – o‘z-o‘zidan (spontan) harakat qilish



G‘ayratli va impulsiv. O‘zgarishlarni, tez o‘zgaruvchan, turli-tuman voqealarni yaxshi ko‘radi. Ko‘pincha bir ishni qilishi va uni oxirigacha etkazishi qiyin. Odamlarning ko‘nglini ko‘tarishni yaxshi ko‘radi, g‘ayratga to‘la bo‘lib, uni boshqalarga ham yuqtirishi mumkin. Ba’zan “yengiltak" odam sifatida qabul qilinadi, chunki bir ishni qila turib, ikkinchisiga o‘tib ketadi. Yetarlicha intizomli emas, lekin u yorqin taassurot qoldirishi mumkin.

F – FACTUAL – faktlarga yo‘nalganlik

Vaziyatni mantiqan baholaydi. Ko‘pincha sabrli. «Hayotda mustahkam poydevorga ega». Intizomli, tartibga solingan xatti-harakatni afzal ko‘radi. Uni chalg‘itish qiyin. O‘z harakatlarini nazorat qiladi. U obektiv, analitik qobiliyatga ega. Masalani mohiyati buyicha ko‘rib chiqadi. Boshqa odamlarni xavotirga solgan sezilar-sezilmas farqlarni etibordan chetda qoldirishi mumkin. Obyektiv axborot va faktlarga yo‘nalish oladi.



D – DELIBERATE – ehtiyotkorlik

Xotirjam, barqaror va ishonchli. U sabr-toqat bilan kutishi mumkin, voqealar kechishini shoshiltirmaydi. Sabrli, uni hayajonlantirish qiyin. Narsalarni qanday bo‘lsa, shundayligicha idrok etadi. Shoshma-shoshar emasligi va o‘ychanligi, boshqalarning unga ishonishiga imkon beradi. Qo‘rs yoki kaltafahm bo‘lib tuyulishi mumkin. Harakatlarini oldindan bilib olish mumkin. Mijg‘ov – «Men seni ogohlantirgan edim a» deb takrorlashni xush ko‘ruvchilar zotidan. Bosimni yenga oladi. O‘z ishida ehtiyotkor va puxta.



2.2. Motivatsiya testi

Bu testga har xil turdagi kasblar yoki mashg‘ulotlarni tizimli tarzda bog‘lash maqsadida sizga qaysi turdagi kasb yoki mashg‘ulotlar yoqishini tekshirish uchun mo‘ljallangan. Bu test orqali sizni qiziqtirgan ishni tanlashingizga yordam beradi.



Shaxs turlari

1. FDAG «Boshqaruvchi» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, ehtiyotlorlik, ishonchlilik va kirishimlilik.


Uslubi: Buyruq beruvchi tashkilotchi.

Tavsifi: g‘ayratli, topqir, muvaffaqiyatli, inson resurslarini amalga oshiruvchi, rejalashtiruvchi shaxsiy jozibasini ishlatuvchi, xotirjam va tinch, ma’suliyatli,tajribali.

Kamchiliklari: sust reaksiya ko‘rsatuvish, tasavvur yetishmasligi, haddan tashqari o‘ziga ishonch.

Kasblar: bank boshqaruvchisi, bosh direktor, mehmonxona menejeri, Qurolli Kuchlar ofitseri, ishlab chiqarish boshlig‘i, chakana savdo bo‘yicha menejer, transport bo‘limi boshlig‘i.

2. FSpAG «Tavakkalchi» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, spontan (o‘z-o‘zidan) harakat qilish, ishonchlilik va kirishimlilik.

Uslubi: Buyruq beruvchi ijrochi.

Tavsifi: boshqalarni ishontira oladi, epchil, g‘ayratli, ko‘pincha qattiq ishlaydi, hukmronlikni yaxshi ko‘radi, jozibali, ta’sirchan, o‘z maqsadiga erishishga qodir.

Kamchiliklari: yetarlicha ehtiyotkor emas, juda ko‘p narsani o‘z zimmasiga oladi, talabchan, sabrsiz.

Kasblar: reklama agenti, kim oshdi savdosini olib boruvchi, klubda kotib, ko‘chmas mulk agenti, jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi boshlig‘i, siyosatchi, sport bo‘yicha murabbiy yoki menejer, bosh ma’mur, fond tashkilotchisi.

3. IDAG «O‘qituvchi» shaxs



Xususiyatlari: faktga yo‘nalganlik, ehtiyotkorlik, ishonchlilik va kirishimlilik.

Uslubi: Buyruq beruvchi rejalashtiruvchi.

Tavsifi: qat’iyatli, hukmronlik qiluvchi, aniq harakat qiluvchi, maqsadga intiluvchan, odamlar bilan muomala qilishda mohir, g‘amxo‘r, faol, qiziquvchan, matonatli, xolisona xizmatga moyil.

Kamchiliklari: ortiqcha g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, haddan tashqari qiziquvchanlik va boshqalarning muammolari bilan band bo‘lish.

Kasblar: shifokor, osteopat, psixolog, ijtimoiy taminot bo‘limi boshlig‘i, maktab direktori, ijtimoiy ishchi, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis.

4. ISpAG «Kurashchi» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, spontan (o‘z-o‘zidan) harakat qilish, ishonchlilik va kirishimlilik.

Uslubi: Buyruq beruvchi eksperimentchi.

Tavsifi: e’tiborli, mulohazali, ilhomi jo‘sh urgan, oddiy, farosatli, g‘amxo‘r, faol, idealistik, qiziquvchan, ta’sirchan.

Kamchiliklari: impulsiv, birovlarni ustidan bosib o‘tishga qodir, haddan tashqari qiziquvchan, talabchan.

Kasblar: huquq himoyachisi, kuryer, kosmetolog, namoyishchi, jurnalist, jamoatchilik bilan aloqalar mutaxassisi, aktyorlik mahorati o‘qituvchisi, jamoat tashkilot vakili.

5. FDPG «Yakunlovchi» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, ehtiyotkorlik, passivlik va kirishimlilik

Uslubi: Yordam beruvchi tashkilotchi.

Tavsifi: "odamlar uchun yashaydigan odam", moslashuvchan, yoqimli, barqaror, ishontira oladigan, oqilona fikrlaydigan, uyushqoq, omilkor, ishonchga loyiq

Kamchiliklari: harakatlarini oldindan bilish mumkin, tasavvurga ega emas, ergashishi, moslashishi oson.

Kasblar: tez tibbiy yordam brigadasi azosi, harbiy, kassir, hamshira, politsiya inspektori, qamoqxona nazoratchisi, o‘t o‘chiruvchi, qo‘riqchi

6. FSpPG «Hamkor» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, spontan (o‘z-o‘zidan) harakat qilish, passivlik va kirishimlilik.

Uslubi: Yordam beruvchi ijrochi.

Tavsifi: barqaror, ishonchli, moslashuvchan, ajoyib guruh a’zosi, topqir, xushmuomala, tushunadigan, qo‘llab-quvvatlay oladigan, mashhur, romantik, qobiliyatli.

Kamchiliklari: ko‘nuvchanlik, nizolardan qochishga intilish, uning ustidan ustunlikka erishish oson, o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaydi.

Kasblar: styuardessa, barmen, tish shifokori yordamchisi, sartarosh, o‘yinlar tashkil qiluvchi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kotib, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, jamoa sardori.

7. IDPG «Ishonchli » shaxs



Xususiyatlari: tasavvurga yo‘nalganlik, ehtiyotkorlik, passivlik va kirishimlilik.

Uslubi: Yordam beruvchi rejalashtiruvchi.

Tavsifi: farosatli, malakali, mulohazali, odamlarga xayrixoh, xushmuomala, ehtiyotkor, g‘amxo‘r, demokratik, topqir.

Kamchiliklari: yumshoq, ko‘nuvchan.

Kasblar: sanitar, yetimxonada tarbiyachi, psixiatriya kasalxonasida hamshira, bolalar bog‘chasida tarbiyachi, ikkichilar bilan shug‘ullanuvchi o‘qituvchi, ijtimoiy xodim, terapevt.

8. ISpPG «Kasbdosh» shaxs



Xususiyatlari: tasavvurga yo‘nalganlik, spontan (o‘z-o‘zidan) harakat qilish, passivlik va kirishimlilik.

Uslubi: Yordam beruvchi eksperimentchi.

Tavsifi: Ko‘ngilchan, eksperimentchi, qiziquvchan, sabrsiz, impulsive, guruh shaxsi, samimiy, sezgir, romantik, hazil-mutoyiba tuyg‘usiga ega.

Kamchiliklari: tez zerikibqoladi, etarlicha ehtiyotkor emas, uyushqoq emas, ishni yakunigacha etkazmaydi.

Kasblar: yuridik maslahatchi, marketolog, bolalar bog‘chasida hamshira, registrator, chakana savdo sohasida sotuvchi, sahna ishchisi, ofitsiant.

9. FDASo «Tashkilotchi» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, ehtiyotkorlik, ishonchlilik, individuallik.

Uslubi: Maslahat beruvchi tashkilotchi.

Tavsifi: haqiqatchi, analitik, tasir o‘tkazuvchi, aniq va o‘tkir fikrlovchi, xotirjam, mustaqil, ishchan, mustaqil, o‘ziga ishonchli, aqlli.

Kamchiliklari: sentimental emas, raqobatbardoshlikka moyil, shubhali, loqayd, chidamsiz.

Kasblar: advokat, politsiya inspektori, ishonchli vakil, ishlab chiqarish operatsiyalarini tahlil qilish bo‘yicha mutaxassis, bojxona inspektori, soliq inspektori.

10. FSpASo «Maslahatchi» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, ehtiyotkorlik, ishonchlilik, individuallik.

Uslubi: Maslahat beruvchi yordamchi.

Tavsifi: qat’iy, maqsadga intiluvchan, g‘ayratli, ziyrak, qat’iyatli, uddaburon, tashabbuskor, chidamsiz.

Kamchiliklari: boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini hisobga olmaydi, boshqalarni ekspluatatsiya qiladi, xudbin, tajovuzkor ko‘rinadi.

Kasblar: import / eksport qiluvchi, sotib oluvchi, tadbirkor, broker, savdo bo‘yicha direktor, sotuvchi, birja vositachisi, gastrolga shiqqubchi truppa ma’muri, klub menejeri.

11. IDASo «Dizayner» shaxs



Xususiyatlari: tasavvurga yo‘nalganlik, ehtiyotkorlik, ishonchlilik, individuallik.

Uslubi: maslahat beruvchi rejalashtiruvchi.

Tavsifi: obyektiv, bilimdon, mulohazali, obro‘li, maslahat beruvchi, tashabbuskor, ishontiruvchi, qat’iyatli.

Kamchiliklari: haddan tashqari tanqidchan, loqayd, xayolida osmonda uchib yuradigan, moslasha olmaydi, murosasiz.

Kasblar: tahlilchi, me’mor, biznes-maslahatchi, inspektor, jurnalist, kutubxonachi, sotsiolog, tibbiyot sohasida tadqiqotchi.

12. ISpASo «Idealist» shaxs



Xususiyatlari: tasavvurga yo‘nalganlik, spontan (o‘z-o‘zidan) harakat qilish, ishonchlilik, individuallik.

Uslubi: Maslahat beruvchi eksperimentchi

Tavsifi: ifodali, tasavvur qilish uquviga ega, qiziquvchan, refleksiv, emotsional, ziddiyatli, oddiy emas, farosatli.

Kamchiliklari: tajribakor emas, xafa qilish oson, shubhali, chidamsiz, hissiyotga berilgan.

Kasblar: me’mor, rassom, yozuvchi, oshpaz, raqqosa, interer dizayneri, musiqachi, haykaltarosh.

13. FDPSo «Tadqiqotchi» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, ehtiyotkorlik, passivlik va individuallik

Uslubi: Tarafdor - tashkilotchi.

Tavsifi: befarq, obyektiv muammolarni hal qila biladigan, o‘z ishida mutaxassis, qiziquvchan, texnikaga moyil, sodda, ishga qobiliyatli, uyushqoq, yaxshi.

Kamchiliklari: juda jiddiy, andishasiz, takabbur, loqayd, sovuq, chidamsiz.

Kasblar: buxgalteriya hisoboti bo‘yicha mutaxassis, aktuariy, arxivchi, auditor, haydovchi, muhandis, sug‘urtachi, operatsiyalar bo‘yicha tadqiqotchi.

14. FSpPSo «Ijrochi» shaxs



Xususiyatlari: faktlarga yo‘nalganlik, spontan (o‘z-o‘zidan) harakat qilish, passivlik va individuallik

Uslubi: Tarafdor-ijrochi.

Tavsifi: mustaqil, jonli, moslashuvchan, befarq, ammo oson moslashadi, javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi, lekin boshqarishni emas, ishonchli, malakali.

Kamchiliklari: tavakkal qilishni yoqtirmaydi, passiv, boshqalarning ishini yomon tashkil qiladi, impulsiv.

Kasblar: buxgalteriya hisoboti buyicha mutaxassis, gid, oshpaz, dietolog, tarjimon, kompyuter texnigi, o‘rta tibbiyot xodimi, yo‘l-patrul xodimi.

15. IDPSo «Mutaxassis» shaxs



Xususiyatlari: tasavvurga yo‘nalganlik, ehtiyotkorlik, ishonchlilik va individuallik

Uslubi: Tarafdor- rejalashtiruvchi

Tavsifi: yolg‘iz ishlaydi, intellektual, mulohazali, talabchan, bilimdon, ijodkor, farosatli, sof niyatli, samimiy, sezgir, to‘g‘ri, sodda.

Kamchiliklari: dadil emas, qo‘pol, beso‘naqay, uyatchan, juda kamtar.

Kasblar: o‘rmonchi, muzey, kutubxona xodimi, fermer xo‘jaligi ishchisi, quruvchi, bog‘bon, tarixchi, buyurtma yetkazib beruvchi, kulol, cho‘pon, tom yopuvchi, egarchi, qurolsoz, chizmachi-loyihachi.

16. ISpPSo «Xayolparast» shaxs



Xususiyatlari: tasavvurga yo‘nalganlik, spontan (o‘z-o‘zidan) harakat qilish, passivlik va individuallik.

Uslubi: Tarafdor - eksperimentchi.

Tavsifi: har tomonlama usta, bilimdon, qiziqqon, zehnli, mustaqil, tasavvur qilish sifatiga ega, qiziquvchan.

Kamchiliklari: notinch, ishonchsiz, uyushqoq emas, beparvo, miyasida shamol esadi, vaqtni cho‘zishni yoqtiradi


Kasblar: barmen, raqqos, disk-jokey, estrada artisti, moda namoyish qiluvchi, yuk ko‘taruvchi, ishlab chiqarishda ishchi, sotuvchi, ofitsiant.

Akademik karyeradan o‘tishning psixologik tayyorgarlik jadvali

	SALBIY FIKRLASH	IJOBIY FIKRLASH
Fikr	Yoqtirmaydigan fanim darsiga kirishim kerak	Yoqtirmagan fanim bo‘lsa ham nimaga erisha olishimni bilish uchun qiziqib ko‘rishim mumkin
Ishonch	Ushbu fan o‘rgatadigan bilimlar umuman menga kerak emas	Fanga doir talablarni o‘zgartira olmayman, lekin undan tajriba olish imkoniyati mavjud
Tahmin	Bu fan zerikarli va hayotda foydasi bo‘lmaydi	Bu fan imkoniyatlari haqida tanishib chiqishim mumkin
Munosabat	Fanni o‘rganish uchun vaqtim va kuchimni sarflashning hojati yo‘q	Shu fanni o‘zlashtirishni o‘zimga kurashish uchun da’vat deb qabul qilaman. Tayinli bilim o‘rgana olmasam ham men uchun qiziqarli tajriba bo‘lishi mumkin
Xulq-atvor	Darslarni qoldirish, qatnashmaslik, berilgan vazifalarni bajarmaslik	Dasrlarda qatnashish, yaxshi baholarga erishish, fan ma’ruzachisining layoqati yetarli bo‘lmasa ham fanga oid qiziqarli ma’lumotlarni topib, o‘rganib kelish
Natija	O‘rta yoki undan past baho bilan fan kursini yakunlash	A’lo yoki munosib yaxshi baho bilan kursni muvaffaqiyatli tugatish

3.1. Nega Akademik soha muhim?

Ta’lim karyerasi grafik xaritasi



Akademik soha, odatda, professional faoliyat deb qaraladi. Qaysi kasb turi bo‘lishidan qat’iy nazar mehnat bozorida professional mutaxassislarga talab doim mavjud bo‘ladi. So‘nggi yillarda barcha turdagi kasblar uchun ish jarayonini tartibga solish, avtomatizatsiyalash va sifatli mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish ehtiyoji ortib bormoqda.

Akademik karyeraning afzallik va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
Doimiy rivojlanib borish imkoniyati	Ilmiy ish qilishda mashaqqatli mehnat
Mutaxassislik bo‘yicha yuqori darajaga erishish imkoniyati	Barcha sohada ham barqaror rivojlanish imkoniyati mavjud emas
Soha mutaxassislari, professionallari bilan tanishish imkoniyati	Soha bo‘yicha raqobatning kuchliligi
Maoshning yuqoriligi va oshib borishi	Akademik lavozimlarda maoshning barqaror bo‘lganligi bilan doim ham yuqori emasligi
Soha yangiliklaridan xabardor bo‘lish imkoniyati	Doimiy izlanishda bo‘lish uchun tinimsiz yangiliklarni kuzatib borish
Dunyo bo‘ylab sayohat qilish imkoniyati	Soha bo‘yicha tadqiqot mavzusi dolzarbligini yo‘qotishi mumkin

3.2. Akademik sohada karyera

Universitet doirasidagi karyera



Professor

Mutaxassislik fanlarini yuritadi. Kafedra mudiri bo‘lib faoliyat yuritishi mumkin. Ilmiy kengashlarda ishtirok etadi. Shogirdlar tayyorlaydi.

Dotsent

Mutaxassislik fanlarini yuritadi. Ilmiy ish bilan shug‘ullanadi. Nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyasini yoqlashi mumkin.

Katta o‘qituvchi

Mutaxassislik fanlarini yuritadi. Ilmiy ish bilan shug‘ullanadi. O‘quv adabiyotlarini tuzish bo‘yicha faoliyat yuritadi

O‘qituvchi

Umumiy fanlar bo‘yicha boshlang‘ich kurslarga darslar o‘tadi

Assisstent

Amaliyot darslarini o‘tadi

Kafedra

Rektor

Universitetning umumiy faoliyatini nazorat qiladi, samarali tizimni yo‘lga qo‘yadi.

Prorektor

Belgilangan yo‘nalish bo‘yicha universitet o‘quv-uslubiy, ilmiy, ma’naviy, xo‘jalik ishlarini olib boradi va nazorat yuritadi.

Dekan

Fakultet o‘quv uslubiy faoliyatini yo‘lga qo‘yadi, talabalar ustidan nazorat o‘rnatadi va tartibga soladi

Bo‘lim boshlig‘i

Bo‘limga yuklangan topshiriq va vazifalarni bajarilishini nazorat qiladi.

Xodim

Bo‘lim xizmat vazifalarini bajaradi.

Ma’muriyat

3.3. Professional karyera qilish bosqichlari

Malaka darajalariga erishish sxemasi



Talab etiladigan ta’lim va kasbiy tayyorgarlik darajasi

1

* ish joyida o‘qitish (yo‘l-yo‘riqlar berish);
* ishlab chiqarish yoki norasmiy o‘qitish bo‘yicha qisqa muddatli kurslar;

2

* ta’lim tashkiloti negizida qisqa muddatli kurslar;
* ishlab chiqarish kurslarida yoki “usta-shogird” uslubi orqali o‘qitish kasbiy tajriba;

3

* boshlang‘ich professional ta’lim;
* o‘rta maxsus ta’lim;
* qisqa va o‘rta muddatli sertifikatlangan kasbga o‘qitish kurslari;
* kasbiy tajriba;

4

* boshlang‘ich professional ta’lim va kasbiy tajriba;
* o‘rta professional ta’lim;
* ta’lim muassasalari negizida kasbga o‘qitish dasturlari bo‘yicha uzoq muddatli kasbga o‘qitish kurslari;
* davomiyligi 1 yildan kam bo‘lmagan validatsiyadan o‘tgan kasbga o‘qitish bo‘yicha ta’lim dasturlari;

5

* o‘rta professional ta’lim va kasbiy tajriba;
* o‘rta maxsus professional ta’lim;

6

* Bakalavriat; ayrim hollarda - o‘rta maxsus professional ta’lim va kasbiy tajriba;

7

* magistratura, internatura, ordinatura (o‘zlashtirilgan bakalavriat dasturi asosida);
* bakalavriat va kasbiy tajriba bilan birgalikda ish beruvchilar tomonidan tan olingan dasturlar bo‘yicha qo‘shimcha professional ta’lim (mutaxassislik);
* yuqori darajadagi qo‘shimcha ta’lim (biznes boshqaruvi, ommaviy boshqaruv va boshqa xalqaro tan olingan oliy ta’limdan keyingi ta’lim);

8

* magistratura, ilmiy unvon olishga yo‘naltirilgan oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida diplom (sertifikat), kasbiy tajriba;
* fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi yoki unga tenglashtirilgan va undan yuqori bo ‘lgan xorijiy davlatlar ilmiy darajalari;
* fan doktori (DSc) ilmiy darajasi;
* kasbiy tajriba bilan birgalikda yuqori darajadagi qo‘shimcha ta’lim (biznes boshqaruvi, ommaviy boshqaruv va boshqa xalqaro tan olingan oliy ta’limdan keyingi ta’lim);

https://lex.uz/docs/-5203490

Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori XALIKK-2020

3.4. Universitetlarga topshirishda tayyorgarlik



BAKALAVR DARAJASIGA ERISHISH SXEMASI

Muddat: 3 yildan 5 yilgacha

QIDIRISH
Mutaxassisligingiz yoki o‘zingiz qiziqqan yo‘nalish bo‘yicha ko‘nikmalaringizga mos mutaxassislik tanlash



TAYYORGARLIK KO‘RISH
Bakalavr yo‘nalishi talablari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish (IELTS/TOEFL, GMAT, CEFR va h.k.)



TOPSHIRISH
Tanlagan yo‘nalish bo‘yicha universitetga hujjat topshirish



O‘QISHGA QABUL



MALAKAVIY IMTIHONLAR
Kurs yakunida mutaxassislik imtihonlarini topshirish



DIPLOM ISHI HIMOYASI
Bitiruv malakaviy ishi himoyasi



BAKALAVR DARAJASI




DIPLOM ISHI
Bitiruv malakaviy ishi (BMI) mavzusi bo‘yicha tadqiqot qilish, mavzuni tanlash, materiallar to‘plash, maqolalar chop etish, tahlil qilish va ishni tayyorlash



Ilmiy rahbar bilan konsultatsiya ishlari

MUTAXASSISLIKKA KIRISH
Topshirgan yo‘nalishingiz bo‘yicha bazaviy bilimlar, ko‘nikmalarga ega bo‘lish, kurslarni o‘tish



KURS ISHLARI YOZISH



AMALIYOT
Yo‘nalish bo‘yicha tashkilot yoki kompaniyalarda amaliyot o‘tash, mutaxassislik kasbini o‘rganish



TADBIRLAR
Konferensiya, seminar, forum, volontyorlik tadbirlarida ishtirok etish





MAGISTR DARAJASIGA ERISHISH SXEMASI

Muddat: 1 yildan 2 yilgacha

QIDIRISH
Mutaxassisligingiz yoki o'zingiz qiziqqan yo'nalish bo'yicha ko'nikmalaringizga mos mutaxassislik tanlash



TAYYORGARLIK KO'RISH
Magistratura muta-xassisligi talablari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish (IELTS/TOEFL, GMAT, CEFR va h.k.)




TOPSHIRISH
Tanlagan yo'nalish bo'yicha universitetga hujjat topshirish



O'QISHGA QABUL



MUTAXASSISLIKKA KIRISH
Magistratura yo'nalishi bo'yicha zarur bilimlar, ko'nikmalarga ega bo'lish, kurslarni o'tish



KURS ISHLARI YOZISH



AMALIYOT
Mutaxassislik bo'yicha tashkilot yoki kompaniyalarda amaliyot o'tash, mutaxassislik kasbini o'rganish uchun ishlash



TADBIRLAR
Konferensiya, seminar, forum, volontyorlik tadbirlarida ishtirok etish



MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI
Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha tadqiqot olib borish, mavzuni tanlash, materiallar to'plash, maqolalar chop etish, tahlil qilish va ishni tayyorlash



Ilmiy rahbar bilan konsultatsiya ishlari

MALAKAVIY IMTIHONLAR
Kurs yakunida mutaxassislik imtihonlarini topshirish



DISSERTATSIYA ISHI HIMOYASI
Magistrlik dissertatsiyasi ishi himoyasi





3.5. O‘zbekistondagi faoliyat yuritayotgan OTM

Oliy ta’lim muassasalari jami - 144 ta.

Ulardan:

- Universitetlar – 30 ta;
- Institutlar – 44 ta;
- Akademiyalar – 3 ta;
- Filiallar – 28 ta;
- Konservatoriya – 1 ta;
- Chet el OTM filiallari – 27 ta;
- Nodavlat oliy ta'lim muassasalari – 11 ta;



Dunyo bo‘yicha jami universitetlar

13 723

https://www.4icu.org/

Gumanitar yo‘nalish

Jurnalistika, Pedagogika, Tarjimonlik

O‘zbekiston Milliy universiteti;

Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Jahon tillari universiteti;

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti;

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti;

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universiteti.

Texnik yo‘nalish

Muhandislik, Dasturlash, Veb-dizayn, Transport, Qurilish

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti;

Islam Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti;

Toshkent arxitektura-qurilish institute;

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute;

I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali.

San’at

Kinematografiya, Rassomchilik

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute;

O‘zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti;

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Toshkent shahridagi «S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti» federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filiali.

Tibbiyot

Tibbiyotning barcha yo‘nalishlari, Farmatsevtika, Stomatologiya

Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Toshkent farmatsevtika institute;

Toshkent pediatriya tibbiyot institute;

Toshkent davlat stomatologiya institute;

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti Toshkent filiali;

N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali.

Yurisprudensiya

Sud, Tergov, Himoya, Adliya

Toshkent davlat yuridik universiteti;

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster Universiteti.

Iqtisodiyot, biznes va moliya

Hisobot, Analitika, Moliya, Bank ishi, Logistika, Menejment, Marketing

Toshkent moliya institute;

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti;

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Toshkent shahridagi Inha Universiteti;

Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Toshkent shahri filiali.

Farg‘ona vodiysidagi OTM

Andijon davlat tibbiyot institute;

Andijon davlat universiteti;

Andijon mashinasozlik institute;

Farg‘ona davlat universiteti;

Namangan davlat universiteti;

Namangan muhandislik-qurilish instituti;

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti;

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institute;

Farg‘ona politexnika institute.

ABT aql bilim test

* Har bir yo‘nalish haqida ma’lumot oliy ta’lim muassasalari veb sahifalarida batafsil yoritilgan

3.6. OTM da o‘qish uchun ta’lim krediti olish imkoniyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi hisobidan tijorat banklari orqali oliy ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qish uchun ta’lim kreditlarini ajratish tartibi to‘g‘risida NIZOM

https://www.lex.uz/docs/-5586538#-5592172

Ta’lim kreditini rasmiylashtirish va ajratish tartibi

Ta’lim krediti olish to‘g‘risidagi ariza;

Talaba va oliy ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi to‘lov-kontrakt asosida o‘qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt) va unga ilova qilinadigan hisob varaqasi/fakturasi (mavjud bo‘lganda);

Bankning kredit siyosati va ichki tartibiga muvofiq ta’lim krediti qaytarilishining ta’minoti bo‘yicha hujjat. Bunda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kirgan oilalarning farzandlariga ajratiladigan ta’lim krediti bo‘yicha garov va kafillik talab etilmaydi;

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnoma;

Bankning ichki hujjatlarida (siyosatida) belgilangan boshqa hujjatlar, shu jumladan, birgalikda kredit oluvchiga tegishli ma’lumot va hujjatlar.

Ta’lim kreditini taqdim etuvchi banklar ro‘yxati

Bank.uz

https://bank.uz/uz/credits/obrazovatelnyy-kredit

3.7. Xorijiy universitet diplomining nostrifikatsiya qilish tartibi

Imtihonsiz

- O‘zbekiston hududida alohida bo‘linmalari (filiallari) va qo‘shma ta’lim muassasalari faoliyat yuritayotgan xorijiy ta’lim muassasalarida ta’lim olgan O‘zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar

- QS, THE, ARWU reytingida TOP-1000 talikka kirgan xorijiy OTMlar https://tdi.uz/upload/top-1000-2021.pdf

- Tasarrufida OTMlari bo‘lgan O‘zbekiston vazirlik va idoralarining yo‘llanmalari asosida mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun xorijiy davlatlar tomonidan ajratilgan kvotalar (grantlar) hisobidan ta’lim olgan fuqarolar

- 1992 yil 1 yanvargacha xorijiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan fuqarolar

- Oliy ta’limda sifatni baholash Yevropa assotsiatsiyasining a’zolari tomonidan akkreditatsiya qilingan ta’lim muassasalaridata’lim olganlarning hujjatlari (European Association for Quality Assurance in Higher Education - https://www.enqa.eu/membership-database/)

- AQSH, Avstraliya, Isroil, Kanada, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya davlatlarining vakolatli tashkilotlari tomonidan akkreditatsiya qilingan ta’lim muassasalarida ta’lim olgan fuqarolar, hamda ayrim istisno holatlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

- Xorijiy OTMlarda mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun O‘zbekistonning vazirlik va idoralari tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan ta’lim olgan fuqarolar

- O‘zbekistonning xalqaro shartnomalari, Prezident va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan boshqa hollar

Maxsus imtihon bilan

Agar Siz o‘qigan OTM ushbu ro‘yxatda bo‘lmasa, demak, Sizning diplomingiz maxsus imtihondan keyingina O‘zbekistonda tan olinadi

Qanday hujjatlar zarur?

- diplom va ilovaning asli (ariza qabul qilingandan so‘ng egasiga qaytariladi);
- diplom va ilovani aslini davlat (o‘zbek) tiliga tarjima qilib notariusdan tasdiqlangani (2 nusxada);
- pasport va pasport nusxasi;
- davlat boji to‘langanligi haqidagi kvitansiya.

Ta’lim hujjatlarini onlayn nostrifikatsiya qilish

https://my.gov.uz/uz/service/sub-services?domen=19&id=8

my.gov.uz



Xalqaro tan olingan OTM reytinglari

The Times Higher Education World University Rankings 2022

https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2022/world-ranking#!/page/0/length/25/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/stats

2021 Academic Ranking of World Universities (ARWU)

https://www.shanghairanking.com/rankings/arwu/2021

QS World University Rankings 2022

https://www.topuniversities.com/university-rankings/world-university-rankings/2022

Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
https://lex.uz/docs/-4164675



3.8. Xorijda ta’lim imkoniyatlari OTM

Xorijiy universitetga hujjat topshirish tartibi

01. Tadqiqot o‘tkazing
Internet orqali sizni qiziqtirgan xorijiy universitetlar haqida: reyting, qabul mezonlari, kurslar haqida ma’lumot, stipendiya va grant imkoniyatlarini izlang



02. Universitetga hujjat topshiring
Qabul mezonlari bo‘yicha talab qilingan hujjatlaringizn tayyorlang. Ko‘pgina xorijiy universitetlarga 30 sentyabrga qadar ariza topshirish maqsadga muvofiq.



03. Stipendiya dasturlari yoki grant imkoniyatlaridan foydalaning
Stipendiya dasturlari bilan tanishib chiqing mezon bo‘yicha zarur hujjatlarni tayyorlang Hujjat topshirish belgilangan sanasidan kechiktirmang. Ko‘pgina xorijiy universitetlarda grant yutib olish imkoniyati mavjud. Grantlar tanlov asosida berilib, uning talablarini bajargan holda, bosqichlardan o‘tib, yutib olish imkoniyat mavjud.



04. Bir nechta universitetga topshiring
Bir vaqtning o‘zida bir nechta stipendiya dasturlar yoki grantlarga hujjat topshirishingiz mumkin



Saralash komissiyasi
Qabul hujjatlarini ko‘rib chiqish vaqt talab etadi. Ma’lum vaqtdan keyin natijalar e’lon qilinadi yoki shaxsiy elektron pochtangizga natijangiz bo‘yicha xabar keladi



Hujjatlarni rasmiylashtirish
Qabulga oid hujjatlar, pasport, viza, bank ma’lumotnomasi, sug‘urta va boshqa hujjatlarni rasmiylashtiring






O‘qishga qabul qilindingiz!



O‘qishni boshlang!

O‘zbekistonning mehnat migratsiyasi mamlakatlar bo‘yicha (ming kishi)

Ayni paytda O‘zbekistondan jami 34 990 nafar talaba oliy o‘quv yurtlarida xorijda tahsil olmoqda. O‘zbekistonlik talabalar uchun xorijda ta’lim olishning eng mashhur yo‘nalishlari quyidagilar:



O‘zbekistonlik talabalar uchun stipendiya imkoniyatlari

Canon Foundation Research Fellowship

GoEuro European Study Abroad Scholarship

Jean Monet Scholarship Program

Erasmus Mundus (Medical Master Studies)

Japan WorldBank Graduate Scholarships

Trendhim Scholarship

Grant va stipendiyalar haqida ma’lumot

Grants and Opportunities

Grantlar.uz

Grantlar va stipendiyalar

4.1. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash tartibi

Namunaviy biznes loyihalar

https://chamber.uz/uz/page/5613

Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish

https://fo.birdarcha.uz/s/uz_landing#

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

https://my.gov.uz/oz

Elektron litsenziyalash tizimi

https://license.gov.uz/

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi

https://www.standart.uz/site/index

1-bosqich

Biznes reja namunalari

2-bosqich

YAIDXP portalining tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish moduli

3-bosqich

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

4-bosqich

Litsenziyalash va standartlashtirish

G‘oya

Biznes boshlash uchun g‘oyangiz bo‘lishi lozim. Shuningdek, uni biznes-reja ko‘rinishga keltirish zarur

Ro‘yxatdan o‘tish

Tadbirkorlik subyektlarini “Yagona darcha” tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tkazish

Davlat xizmatlari

Tadbirkorlik subyekti bir qator davlat xizmatlaridan foydalanishi mumkin

Litsenziyalash va standartlashtirish

Tadbirkorlik faoliyat turlariga qarab ba’zi subyektlar litsenziya olishlari yoki standartlashtirishdan o‘tishlari lozim

Bozor

O‘z mahsulotingiz va xizmatlaringiz bilan bozorga chiqishingiz mumkin

4.2. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda ko‘maklashuvchi tashkilotlar

Moliyaviy xizmatlar

Kreditlar ajratish, lizing, kafolat xizmatlari, biznes reja tuzish va biznes hisobotlar

Bank.uz

Bank xizmatlari

https://bank.uz/uz/orgs/banks

Bank.uz

Sug‘urta kompaniyalari ro‘yxati

https://bank.uz/uz/orgs/strakhovye-agentstva

TOSHKENT REPUBLICAN STOCK EXCHANGE

“Toshkent” Respublika fond birjasi

https://www.uzse.uz/?locale=uz

O'ZBEKISTON SAVDO-SANOAT PALATASI

SSP xizmatlari (bepul/pullik)

https://chamber.uz/uz/page/5603

Yuridik xizmatlar

Yuridik xizmatlar, maslahatlar, konsultatsiya va notarial xizmatlar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI — ADOLATDA

Yuridik maslahat xizmatlarini ko‘rsatuvchi tijorat tashkilotlari reyestri

https://minjust.uz/uz/interactive/reestr-law-serv/?ELEMENT_ID=99343

LexUZ on-line

O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

https://lex.uz/

NORMA

Norma.uz Axborot-huquqiy portali

https://www.norma.uz/oz/

NOTARIUS

Elektron notarius

https://e-notarius.uz/

advice.uz
Huquqiy axborot portali

Huquqiy axborot portali

https://advice.uz/uz

O'ZBEKISTON POCHTASI

Pochta xizmatlari

https://www.pochta.uz/uz/

Boshqa xizmatlar

Aloqa, yuk tashish va boshqa xizmatlar

logistika.uz

Logistika xizmatlari

https://www.logistika.uz/

Elektron soliq xizmatlari

https://my.soliq.uz/main/

UZTELECOM

Telekommunikatsiya xizmatlari

https://uztelecom.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT BOJXONA QO'MITASI
RASMIY VEB-SAYTI

Davlat bojxona qo'mitasi

https://www.customs.uz/oz/lists/interactive

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirlgi

https://mift.uz/uz

glotr.uz

Mahsulot va xizmatlar portali

https://glotr.uz/uz/

5.1. Xalqaro onlayn kasb-hunar va ta’lim resurslari

Xalqaro eng sara onlayn ta’lim platformalari (qisman bepul)

UDACITY

www.udacity.com

Sun’iy intellekt

Avtonom tizimlar

Biznes

Bulutli texnologiyalar

Kiberxavfsizlik

Ma’lumotlarni qayta ishlash

Mahsulot menejmenti

Dasturlash va dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish

Karyera

coursera

www.coursera.org

Ma’lumotlarni qayta ishlash

Biznes

Informatika

Shaxsiy rivojlanish

Axborot texnologiyalari

Xorijiy tillarni o‘rganish

Matematika va mantiq

Fizika va muhandislik

Tibbiyot

Ijtimoiy fanlar

San’at va gumanitar fanlar

udemy

www.udemy.com

Dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish

Biznes

Moliya va Buxgalteriya

Axborot texnologiyalari va dasturiy ta’minotlar

Ofis ishlarida samaradorlik

Shaxsiy rivojlanish

Dizayn

Marketing

Qiziqishlar

Suratga olish va video

Salomatlik va jismoniy tarbiya

Musiqa

O‘qitish va akademik soha

LEARNING

www.linkedin.com/learning/

Biznes tahlil va strategiya

Biznes dasturiy ta’minot va qurilmalar

Karyera qilish

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish

Moliya va buxgalteriya

Inson resurslari

Liderlik va menejment

Marketing

Professional rivojlanish

Loyihalar menejmenti

Savdo

Kichik biznes va tadbirkorlik

Ta’lim va malaka oshirish

SKILL SHare.

www.skillshare.com

- Animatsiya
- Ijodiy yozish
- Film va video
- Amaliy san’at
- Grafik dizayn
- Musiqa
- Suratga olish
- UI/UX dizayn
- Veb-dasturlash
- Biznes tahlil
- Frilans va tadbirkorlik
- Liderlik va Menejment
- Marketing
- Qiziqishlar
- Samaradorlik
- Illustratsiya

mindvalley

www.mindvalley.com

- Shaxsiy rivojlanish
- Karyera
- Tadbirkorlik
- Psixologiya

duolingo

www.duolingo.com

MEMRiSE

www.memrise.com

edX

www.edx.org

- Arxitektura, san’at va Madaniyat
- Biologiya va Atrof muhit
- Biznes va menejment
- Kimyo, fizika, matematika
- Kommunikatsiya, Informatika
- Ma’lumotlarni qayta ishlash
- Dizayn, Iqtisodiyot va moliya
- Ta’lim va malaka oshirish
- Elektronika, muhandislik
- Energetika va Yer resurslari
- Oziq-ovqat va oziqalanish
- Salomatlik, tibbiyot va xavfsizlik
- Tarix, adabiyot, falsafa va etika
- Xorijiy tillar, huquqshunoslik
- Gumanitar va ijtimoiy fanlar

Alison

www.alison.com

- Biznes
- Muhandislik va qurilish
- Tibbiyot
- Axborot texnologiyalari
- Xorijiy tillar
- Menejment
- Shaxsiy rivojlanish
- Savdo va marketing
- O‘qitish va malaka oshirish

TEDEd

https://ed.ted.com/

5.2. O‘zbek tilidagi kasb-hunar va ta’lim resurslari

O‘zbekistondagi onlayn ta’lim imkoniyatlari (bepul)

www.xanakademiyasi.uz

Matematika | Aniq va tabiiy fanlar
Axborot texnologiyalari | Iqtisodiyot

Axborot texnologiyalari:

Dasturchilar:

https://www.youtube.com/c/Dasturchilar

Kadirov Dev:

https://www.youtube.com/channel/UCcjcQHyiSPtGMhpiCc4mGfQ

Farkhod Dadajonov:

https://www.youtube.com/user/Farkhod1982

Botir Ziyatov:

https://www.youtube.com/channel/UCITeBYoT2MxV_GDdYK8lSCA

Programmer Uz:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI

№450

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son farmoni)

№400

O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligining yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

№388

Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari to‘g‘risida

№183

Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Global kasblarning karyera yo‘nalishlari

San’at, hunarmandchilik va dizayn

Mahsulot dizayneri
To‘qimachilik bo‘yicha dizayner
Grafik dizayner
Fotosuratchi
Illustrator
Zargarlik buyumlari dizayneri
Moda dizayneri
Pardoz dizayneri
Interyer dizayneri

Savdo, Marketing va Reklama

Savdo menejeri
Do‘kon menejeri
Mahsulotlar xaridori
Ko‘chmas mulk agenti
Marketing menejeri
Marketolog
Reklama agentligi menejeri
Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassis

Moliya, Huquq va Siyosat

Bank menejeri
Birja brokeri
Investitsiya bo‘yicha tahlilchi
Buxgalter
Sug‘urta agentligi mutaxassisi
Moliyaviy maslahatchi
Iqtisodchi
Huquqiy maslahatchi
Sudya
Siyosatchi

Informatsion texnologiyalar va Raqamlashtirish

Dasturiy ta'minot muhandisi
Tizimlar tahlilchisi
Ma'lumotlar bazasi administratori
Tarmoq muhandisi
IT ta’minot mutaxassisi
Veb-dasturchi
O'yin dasturchisi
Kiberxavfsizlik tahlilchisi

Badiiy san’at, OAV va Jurnalistika

Musiqachi
Raqqos(a)
Aktyor/aktrisa
Televideniye/Kino rejissori
Televideniye/Kino prodyuseri
Operator
Ovoz rejissori
Yozuvchi
Jurnalist
Muharrir

Boshqaruv va Biznes menejment

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish menejeri
Xodimlar bo‘yicha menejer
Loyiha menejeri
Menejment bo‘yicha maslahatchi
Shaxsiy yordamchi
Tadbirlar menejeri
Xayriya jamg‘armasi xodimi
Tarjimon

Qishloq xo‘jaligi va Atrof-muhit

Veterinar
Hayvonlarni parvarish qilish bo‘yicha mutaxassis
Hayvonoy bog‘i xizmatchisi
Fermer xo‘jaligi boshqaruvchisi
Bog‘bon
Landshaft dizayneri
Ekolog

Fan va Tadqiqot

Biotexnolog
Mikrobiolog
Farmatsevtika mutaxassisi
Oziq-ovqat bo‘yicha mutaxassis
Sud-tibbiyoti eksperti
Geolog
Materialshunos
Meteorolog
Astronom
Kosmonavt

Global kasblarning karyera yo‘nalishlari

Muhandislik va Sanoat

Qurilish muhandisi
Burg‘ulash muhandisi
Kimyogar muhandis
Muhandis-mexanik
Avtomexanik
Elektrik muhandis
Aloqa muhandisi
Aerokosmik muhandis

Transport

Aviakompaniya uchuvchisi
Aviadispetcher
Transport harakati dispetcheri
Kema kapitani
Temir yo‘l mashinisti
Yuk mashinasi haydovchisi
Logistika menejeri

Ijtimoiy soha va Ta’lim

Psixolog
Ijtimoiy masalalar maslahatchisi
Ijtimoiy xizmatchi
Yoshlar bilan ishlash xizmatchisi
Internat xizmatchisi
Bolalar tarbiyachisi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Umumta’lim maktab o‘qituvchisi
OTM o‘qituvchisi
Kutubxonachi

Sog‘liqni saqlash va Tibbiyot

Shifokor
Hamshira
Feldsher-akusher
Stomatolog
Farmatsevt
Rentgenograf
Fizioterapevt
Logoped
Umumiy tibbiyot xodimi
Oftalmolog

Qurilish

Arxitektor
Muhandis konstruktor
Smeta tuzuvchi muhandis
Shaharsoz
Quruvchi
Qurilish boshqaruvchisi
Duradgor
Elektrik
Santexnik

Xavfsizlik va Favqulodda xizmatlar

Harbiy xizmatchi
Havo kuchlari uchuvchisi
Harbiy dengizchi
Huquqni muxofaza qilish xodimi
Ahloq tuzatish muassasasi xodimi
Razvedka xodimi
O't o‘chiruvchi
Tez yordam xizmati xodimi

Sport, Servis va Turizm

Professional sportchi
Shaxsiy murabbiy
Kosmetolog
Mehmonxona menejeri
Sayyohlik agentligi xodimi
Havo kemasi ekipaji xizmatchisi
Oshpaz
Muzey kuratori

Global kasblar tavsifi

San’at, Hunarmandchilik va Dizayn

Mahsulot dizayneri
Biz kundalik hayotimizda ishlatadigan buyumlar, masalan, uyali telefonlar, kir yuvish mashinalari va avtomobillar - Mahsulot dizaynerlari tomonidan ishlab chiqiladi, modellashtiriladi va sinovdan o‘tkaziladi.

To‘qimachilik dizayneri
To‘qimachilik dizaynerlari turli xil matolardan, shu jumladan paxta, jun va sintetik tolalardan foydalangan holda kiyim-kechaklar, moda aksessuarlari va uy interyerlari uchun yangi dizaynlarni yaratadilar.

Grafik dizayner
Jurnallardan tortib veb-saytlarga qadar turli xil media materiallar ishlashda Grafik dizaynerlar aniq xabarni yetkazadigan vizual dizayn yaratish uchun yozuvlar, tasvirlar va maketlardan foydalanadilar.

Fotosuratchi
O'z texnik va badiiy qobiliyatlaridan foydalangan holda, professional Fotosuratchilarto‘ylar va marosimlar, tabiat manzaralari va sport tadbirlari kabi atrofimizdagi diqqatga sazovor manzaralarni tasvirlaydilar.

Illustrator
Tasviriy san'at va texnik illustratsiya bo‘yicha o‘z mahoratlarini namoyish etgan holda Illustratorlar turli xil kitoblar, taklifnomalar va mahsulotlarga oid qo‘llanmalar uchun chizmalar tayyorlaydilar.

Zargarlik buyumlari dizayneri
Kumush, oltin, qimmatbaho toshlar va boshqa materiallar bilan ishlaydigan Zargarlik buyumlari dizaynerlari uzuk va marjon taqinchoqlar kabi zargarlik buyumlarini yaratish uchun eng so‘nggi yangiliklarni kuzatib borishadi.

Moda dizayneri
Eng sara dizaynerlik ishlanmalar hamda yuqori darajadagi modadan tortib, funksional poyabzal va kundalik kiyimlarga qadar Modalar dizayneribiz kiyadigan kiyimlarning tendensiyalari va uslublarini belgilaydilar.

Pardoz dizayneri
Personajlarni grimda jonlantirish uchun kreativ va samarali pardoz-andoz usullaridan foydalangan holda, Pardoz dizaynerlari aktyorlar, modellar, teleboshlovchilar va xususiy mijozlarning tashqi ko‘rinishi ustida ishlaydilar.

Interyer dizayneri
Biz yashaydigan, ishlaydigan va dam oladigan joylarga go‘zal ko‘rinish va tuyg‘ular yaratish maqsadida, Interyer dizaynerlari mosjozibani yaratish uchun mebel, bo‘yoq effektlari va interyer jihozlaridan foydalanadilar.

Agar sizda badiiy iste'dod va uslub qanday bo‘lishi kerakligi tushunchasiga ega bo‘lsangiz, siz san'at va dizayn yo‘nalishi bo‘yicha o‘zingizni rivojlantirishingiz mumkin. Ushbu sohada siz yangi mahsulotlar yaratish, jurnallar uchun rasmlar tayyorlash, uyning interyer qismini bezash yoki so‘nggi moda tendentsiyalarini yaratish bilan shug‘ullanishingiz mumkin.

Savdo, Marketing va Reklama

Savdo-sotiq qilish, xaridlarga qiziqish va mijozlarning ehtiyojlarini bilish qobiliyati ushbu rivojlanib borayotgan sohada juda muhim. Lavozim majburiyatlari xilma-xil bo‘lib, reklama e’lonlarini tuzishdan boshlab press-relizlar yozish hamda aholining sarf-harajat odatlarini bashorat qilishgacha farqlanadi.

Savdo bo‘yicha menejer
Savdo-sotiqning maqsadi – mahsulot yoki xizmatlardan olinadigan daromadni oshirish orqali firma daromadini ko‘paytirish. Savdo menejerlari mijozlarga yaqindan murojaat qilish orqali yangi biznesni yo‘lga qo‘yadilar.

Do‘kon menejeri
Savdo maqsadlariga erishishda xodimlarni rag‘batlantirish uchun o‘zlarining yetakchilik qobiliyatlaridan foydalangan holda, do‘kon menejerlari bizga kerakli mahsulotlar sotib oladigan do‘kon va supermarketlarni nazorat qiladilar.

Xaridchi
Kelajakdagi tendensiyalar va iste'molchilar talablarini o‘rganib chiqib, Xaridchilar nimani sotish, qaysi mahsulotni zaxirada saqlash va ularni qanday narxlash to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qiladilar.

Ko‘chmas mulk agenti
Ko‘chmas mulk agentlari uy xaridorlari va sotuvchilarini bir biri bilan bog‘lab, mijozlar nomidan mulk sotish bo‘yicha muzokaralar olib boradilar. Ko‘chmas mulk bozori jadal rivojlanayotgan paytda ularga bo‘lgan talab yanada ortadi.

Marketing menejeri
Aniq va kreativ muloqot muvaffaqiyatli marketing kalitidir. Marketing menejerlari mahsulotlar, xizmatlar va g‘oyalarni xaridorlarga aynan shu tarzda targ‘ib qiladilar.

Marketolog
Raqamli ko‘nikmalarni iste'molchilarning xulq-atvori to‘g‘risidagi bilimlar bilan birlashtirib, marketologlar mavjud mahsulot va xizmatlarni yaxshilash maqsadida iste'molchilar istaklarini o‘rganadilar.

Reklama agentligi menejeri
Reklama agentligi menejeri o‘z mijozlarining maqsadlarini talqin qilish orqali nashriyot, televideniye va onlayn ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda reklama kampaniyalarini ishlab chiqish uchun kreativ guruh bilan birga ishlaydilar.

Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassis (PR)
Mahsulot, xizmat yoki kompaniya haqidagi jamoatchilikning fikri uning sotilishi va ommalashishi uchun juda muhimdir. Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassislar o‘z kompaniyalarining ijobiy jamoatchilik imidjini ko‘taradilar.

Badiiy san’at, OAV va Jurnalistika

Musiqachi	Musiqiy iste'dodni g‘ayrat, qat'iyatlik va ijro etish qobiliyati bilan uyg‘unlashtirgan musiqachilar o‘z kuylari va asarlari bilan muxlislarni bahramand qiladi.
Raqqosa	Musiqa va harakatlarning tug‘ma iste’dodiga ega bo‘lgan raqqoslar ko‘p yillik mashg‘ulotlar bilan birgalikda ritmik qadamlar va tartiblar orqali hikoyalar, kompozitsiyalar hamda hissiyotlarni dunyoga keltiradilar.
Aktyor/ Aktrisa	Televideniye, kino va teatrda ishlashdan qat’iy nazar, reklama roliklarida va o‘quv videodarslarda, aktyorlar drama mahoratidan foydalangan holda o‘ynagan obrazlarini tasvirlaydi va rivojlantiradi.
Televideniye/ Kino rejissori	Kreativ iste’dodi va texnik tajribasidan foydalana oladigan rejissyor - kinofilmning umumiy ko‘rinishini tasavvur qila bilib, aktyorlar va suratga olish guruhni ilhomlantira oladigan ijodiy kuch egasi.
Televideniye/ Kino prodyuseri	Muvaffaqiyatli televideniye va kinofilmlar ishlab chiqarish - bu daromadli biznes. Ssenariylarni o‘rganish, mablag ‘ajratish va aktyorlar tarkibini jalb qilish orqali kinoprodyuser mahsulotning ekranga chiqishini ta'minlaydi.
Operator	Drama spektakllari, musiqiy kliplar, yangiliklar va tabiat hodisalarini tasvirga olish jarayonida operatorlar texnik ko‘nikma va kreativ yondashuvdan foydalanib, obyektiv oldidagi kadrlarni tasvirga oladilar.
Ovoz rejissori	Ovoz rejissorlari konsert va tomoshalarda uskunalarni sozlaydilar, ovoz balandligini tekshiradilar, tinglovchilar uchun soz akustik ovoz yaratadilar.
Yozuvchi	Til yordamida hikoyalar so‘zlashni yaxshi biladigan yozuvchilar o‘zlarining kreativ va tadqiqot qobiliyatlaridan foydalanib, turli ommaviy axborot vositalarida nashr etilishlari uchun badiiy va publitsistik asarlar yaratadilar.
Jurnalist	Jurnalist kasbi professionallikni talab etib, yangiliklarda yoritiladigan voqealar ortidagi faktlarni chuqur o‘rganib chiqqach, ular voqeaning mazmun-mohiyatiga to‘liq yetishishlari uchun har tomonlama izlanadilar.
Muharrir	Kitoblar va boshqa ommaviy axborot vositalarida matnlar bilan ishlaydigan muharrirlar nashrdagi matn tarkibining sifati hamda xatolarga yo‘l qo‘yilmaganligi uchun javobgarlikni o‘z bo‘yinlariga oladilar.

Sahnada rol ijro etish, musiqa asbobida kuy ijro etish, maqolalar yozish yoki televideniye, kino va internet kabi vizual vositalar orqali jamoatchilik bilan aloqa qilish – kasb sifatida egallanishi mumkin. Biroq, har bir sohada raqobat bo‘lgani kabi, muvaffaqiyatga erishish uchun sizga mehnat, fidoyilik va qat'iyatlik kerak bo‘ladi.

Boshqaruv va Biznes menejment

Savdo-sotiq qilish, haridlarga qiziqish va mijozlarning ehtiyojlarini bilish qobiliyati ushbu rivojlanib borayotgan sohada juda muhim. Lavozim majburiyatlari xilma-xil bo‘lib, reklama e’lonlarini tuzishdan tortib press-relizlar yozish hamda aholining sarf-harajat odatlarini bashorat qilishgacha farqlanadi.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi menejerlar korxona yoki tashkilotning omma qiyofasi bo‘lib, mijozlarga taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlardan mamnun bo‘lishlarini ta'minlash uchun ishlaydilar.	**Mijozlarga xizmat ko‘rsatish menejeri**
Odamlar har qanday tashkilotning eng qimmatli boyligidir. Xodimlar bo‘yicha menejerlar xodimlarni yollashda, o‘qitishda hamda ularga teng imkoniyatlar yaratish kabi kadr masalalari bilan shug‘ullanadilar.	**Xodimlar bo‘yicha menejer (HR)**
Loyiha menejerlari deyarli har bir soha va sho‘bada faoliyat yuritib, loyiha bosqichlarining to‘g‘ri tashkil etilganligini, muammosiz ishlashi va belgilangan byudjetga mos kelishini ta'minlaydilar.	**Loyiha menejeri**
Menejment bo‘yicha maslahatchilar muammolarni aniqlash va uning yechimlari bo‘yicha tavsiyalarini taklif qilish uchun kompaniyalar tomonidan yollanib, muhim masalalar mohiyatiga chuqur kirish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan biznes ekspertlar hisoblanadilar.	**Menejment bo‘yicha maslahatchi**
Ish bilan band bo‘lgan rahbarlar ish grafigini tartibga solish, xat- yozishmalar bilan ishlash va xodimlarni nazorat qilishda shaxsiy yordamchilariga ishonadilar.	**Shaxsiy yordamchi**
Tijorat, xayriya va ommaviy tadbirlarning ko‘lami qanday bo‘lishidan qat'iy nazar, puxta rejalashtirishni talab qiladi. Ularni boshqarish tadbirlar menejeri mas‘uliyatida bo‘lib, ular har bir bosqichning muammosiz ishlashini ta'minlaydilar.	**Tadbirlar menejeri**
Xayriya mablag'larini yig‘ish har bir xayriya tashkilotining faoliyati uchun muhimdir va xayriya mablag‘larini jalb qilishda zamonaviy va innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhimdir.	**Xayriya jamg‘armasi xodimi**
Tarjimonlar o‘zlarining lingvistik ko‘nikmalari hamda boshqa madaniyatlar va urf-odatlarini tushunishga tayanib, yozma yoki audio materiallarni bir tildan boshqasiga tarjima qiladilar.	**Tarjimon**

Moliya, Huquq va Siyosat

Psixolog	Bank sohasida ishlaydigan bank menejerlari jismoniy va yuridik shaxslar uchun bir qator moliyaviy xizmatlarning ko‘rsatilishini nazorat qiladilar.
Ijtimoiy masalalar maslahatchisi	Qimmatli qog‘ozlar va obligatsiyalar kabi investitsiyalarni sotib olish va sotish orqali brokerlar o‘z mijozlariga daromad olish uchun moliya bozori haqidagi bilimlaridan foydalanadilar.
Ijtimoiy xizmatchi	Moliyaviy ma'lumotlar, iqtisodiy va siyosiy tendentsiyalarni o‘rganish orqali investitsiya bo‘yicha tahlilchilar banklarga, investorlarga va fond menejerlariga daromad olishning eng yaxshi usullari to‘g‘risida maslahatlarini beradilar.
Yoshlar bilan ishlash xizmatchisi	Moliyaviy hisob har qanday turdagi biznesning asosi hisoblanadi. Buxgalterlar - bu murakkab moliyaviy ma'lumotlarni to‘playdigan va tekshiradigan malakali tahlilchilardir.
Internat xizmatchisi	Statistika va iqtisodiyot sohalarida ilg‘or bilimlarga ega sug‘urta agentlari malakali matematiklar bo‘lib, ular yirik kompaniyalarga rejalashtirish va qaror qabul qilishda yordam berish maqsadida risklar bo‘yicha maslahat beradilar.
Bolalar tarbiyachisi	Moliyaviy xizmatlar sanoatining o‘sishi ko‘plab jamg‘arma va investitsion mahsulotlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Moliyaviy maslahatchilar o‘z mijozlariga to‘g‘ri moliyaviy tanlov qilishlariga yordam beradilar.
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi	Iqtisodiy nazariyani tushunish biznes-strategiya va hukumat siyosati uchun juda muhimdir. Iqtisodchilar – bu qaror qabul qiluvchi shaxslarga iqtisodiy maslahat beradigan mutaxassislar hisoblanadi.
Umumta’lim maktab o‘qituvchisi	Jismoniy shaxslar yoki tashkilotlarda faoliyat yuritishidan qat’iy nazar, huquqiy maslahatchilar sud zalida va uning tashqarisida turli huquqiy masalalar bo‘yicha mijozlarga vakillik qiladilar va maslahatlar beradi.
OTM o‘qituvchisi	Sudyalar qonunlarni ekspert darajasida bilishi va qaror qabul qilishning kuchli ko‘nikmalarini birlashtirib, sud zalida va huquqiy muzokaralar vaqtida sud jarayoni saqlanishini ta'minlaydi.
Kutubxonachi	Siyosatchilar siyosiy partiya vakili sifatida saylovchilarining manfaatlarini himoya qilib, ijtimoiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishda o‘zlarining siyosatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida siyosiy kampaniya olib boradilar.

Ushbu sohada karyera qilish uchun kuchli aql-idrok, katta miqdordagi ma'lumotni qayta ishlash va saqlash, raqamlar bilan ishlash, huquqiy va biznes masalalarini to‘liq anglash qobiliyatlari kerak bo‘ladi. Odamlar bilan birga ishlash ko‘nikmalari ham juda muhimdir, chunki ushbu soha vakillari boshqa mutaxassislar va jamoatchilik bilan faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Fan va Tadqiqot

Biotexnolog	Biotexnologlar qishloq xo’jaligi kabi bir qator sohalarda foydalanish uchun yangi materiallar, organizmlar va mahsulotlarni ishlab chiqish uchun genetikadan biokimyoga qadar ilmiy usullardan foydalanadilar.
Mikrobiolog	Mikrobiologlar tomonidan viruslar, bakteriyalar va boshqa mikroorganizmlar ustida olib borilgan tadqiqotlar yuqumli kasalliklarning oldini olish hamda aholi salomatligini muhofaza qilishda juda muhimdir.
Farmatsevtika mutaxassisi	Farmatsevtika mutaxassisi yangi va mavjud dori vositalari, shuningdek, boshqa kimyoviy moddalar ustida tadqiqotlar olib borishda o‘zlarining ilmiy bilimlaridan inson salomatligini yaxshilash maqsadida foydalanadilar.
Oziq-ovqat bo‘yicha mutaxassis	Nazorat qiluvchi organlar hamda oziq-ovqat/ichimliklar sanoatida ishlaydigan oziq-ovqat bo‘yicha mutaxassislar yangi mahsulotlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadilar, mavjud mahsulotlarning xavfsizligi va inson salomatligiga ta'sirini tekshiradilar.
Sud - tibbiyoti eksperti	Jinoyat sodir bo‘lgan joylarni ilmiy tahlil qilish va jinoiy ishlar bo‘yicha dalillarni to‘plash, sud-tibbiyoti ekspertlari yashirin faktlarni aniqlash orqali jinoyatlarning ochilishiga yordam beradilar.
Geolog	Qazilma ishlari va tadqiqotlar orqali Yerning tabiiy boyliklarini o‘rganib chiqqach, geologlar yer ostidagi neft, gaz va mineral resurslar haqidagi bilimlarni oshiradilar.
Materialshunos	Texnologiyalardan bir qadam oldinda yuradigan materialshunos olimlar tabiiy va sun’iy materiallarning xususiyatlari hamda xulq-atvorini o‘rganish orqali ertangi kun moddalarini yaratadilar.
Meteorolog	Iqlim tadqiqotlarini o‘tkazish, ob-havo ma'lumotlarini yaratish va taqdim etish bilan shug‘ullanadigan meteorologlar atrofimizdagi dunyoni shakllantiradigan atmosfera sharoitlarini o‘rganadilar va sharhlaydilar.
Astranom	Yulduzlar, sayyoralar, fazoni kuzatish va tadqiq etish orqali o‘rganadigan astronomlar koinotni tushunishga yordam berish maqsadida akademik yo‘nalishda faoliyat yuritadilar.
Fazogir (kosmonavt/ Astronavt)	Koinot to‘g‘risidagi fan - ilmiy ahamiyatga katta hissa qo‘shadigan keng soha hisoblanadi. Kosmonavtlar esa - koinotda tadqiqotlar olib boruvchi samoviy tadqiqotchilardir.

Ushbu ilmiy sohada bilim, analitik yondashuv va yangi kashfiyotlar qilish ishtiyoqiga ega bo‘lgan odamlarga mos keladigan keng ko‘lamli mutaxassisliklar to‘plami mavjud. Ushbu sohada siz vaksinalar ishlab chiqarishingiz, yangi moddalar kashf etishingiz yoki sun'iy yo‘ldoshlarni kosmosga uchirishingiz mumkin.

Informatsion texnologiyalar va Raqamlashtirish

Dasturiy ta'minot muhandisi	Kompyuterlashtirilgan qurilmalar – bu elektron asrning vositalaridir. Dasturiy ta'minot muhandislari foydalanuvchi va mashina o'rtasidagi aloqani ta'minlashda, qurilmalarni harakatga olib keladigan kodni yozadilar.
Tizimlar tahlilchisi	Deyarli har qanday korxona yoki tashkilot ma'lumotlarning samarali oqimiga tayanadi. Shuning uchun IT-tizimlarni o'rganadigan va takomillashtiradigan tizim tahlilchilari bugungi zamonaviy iqtisodiyot uchun juda muhim ahamiyatga ega.
Ma'lumotlar bazasi administratori	Ma'lumotlar bazasi administratorlari har bir soha va yo'nalishda faoliyat yuritib, elektron shaklda saqlanadigan ma'lumotlarning aniqligi, o'zgarmasligi va xaker hujumlaridan himoyalanganligini ta'minlaydi.
Tarmoq muhandisi	Kompyuter va aloqa tizimlari elektron tarmoqlarga tayanadi. Ushbu sohadagi muhandislar optik tolali yoki simsiz tizimlar kabi bir qator kompyuter tarmoqlarida ishlaydilar.
IT ta'minot mutaxassisi	Kompyuter tizimlari va dasturiy ta'minot haqida batafsil ma'lumotlarga tayangan holda, IT ta'minot mutaxassislari texnik muammolarga duch kelgan foydalanuvchilarga yordam ko'rsatadilar va maslahat beradilar.
Veb-dasturchi	Internetning tashqi ko'rinishini shakllantirgan holda, veb-dizaynerlar va veb-dasturchilar o'z mahoratidan foydalanib, korxonalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar uchun veb-saytlarni yaratadilar.
O'yin dasturchisi	Yil sayin ommalashib borayotgan kompyuter o'yinlari sanoati o'yinlarni boshqaradigan kodni dastrulashda innovatsion va kreativ dasturchilarga tayanadilar.
Kiberxavfsizlik tahlilchisi	IT xavfsizligiga tahdidlar tez-tez uchrab turishi, kiberxavfsizlik bo'yicha tahlilchilar ma'lumotlar hujumlaridan himoya qilish uchun texnik ko'nikmalaridan foydalangan holda kompyuter tizimlarining himoyachilari hisoblanadi.

Bugungi axborot dunyosi yuqori sifatli ma'lumotlar mavjudligi va oqimiga bog'liq. Informatsion texnologiyalar (IT) va raqamlashtirish hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi kasblar doirasiga e'tibor– kompyuter tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashdan tortib veb-saytlarni ishlab chiqishga qadar - doimiy ortib boradi.

Qishloq xo'jaligi va Atrof-muhit

Agar siz hayvonot dunyosi yoki tuproqda o'simliklar bilan ishlashda zavqlansangiz, ushbu sohadagi ba'zi kasblar bilan tanishib chiqishingiz mumkin. Otlarni parvarish qilish, kasal hayvonlarni tuzatishdan tortib, ekinlarni yetishtirish texnikasini o'rganishga qadar mavjud bo'lgan kasblar soni doimo ortib bormoqda.

Hayvonot bog'larida, fermalarda va uy hayvonlarining salomatligini muhofaza qilishda, veterinarlar fiziologiya va anatomiya bo'yicha bilimlarini kasal yoki jarohatlangan hayvonlarni davolashda foydalanadilar.	**Veterinar**
Parvarishlash markazlaridan boshlab, uy hayvonlari do'konlariga qadar bo'lgan joylarda hayvonlarni parvarish qilish bo'yicha xodimlar o'zlarining qaramog'idagi hayvonlarni yuvintiradi, boqadi va g'amxo'rlik qiladi.	**Hayvonlarni parvarish qilish bo'yicha mutaxassis**
Hayvonot bog'i xodimlari hayvonot bog'lari va qo'riqxonalarda ishlab, o'zlarining qaramog'idagi hayvonlarga yaxshi qarab, yashash sharoitlari mos bo'lishlarini ta'minlaydilar.	**Hayvonot bog'i xizmatchisi**
Zamonaviy qishloq xo'jaligida yirik texnika, ilmiy metodlar va biotexnologiyalardan foydalaniladi, shuning uchun fermerlar xo'jaligi boshqaruvchisi ham biznesni boshqarish, ham qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadilar.	**Fermer xo'jaligi boshqaruvchisi**
Bog'dorchilik rivojlanib borayotgan soha hisoblanadi. Ushbu sohadagi ishchilar urug'larni ekish, o'simliklarni qalamcha payvand qilish va kesish, kasalliklarning oldini olish uchun javobgar bo'ladilar.	**Bog'bon**
Ochiq maydonlar dizayniga bo'lgan ishtiyoq bilan landshaft dizaynerlari o'zlarining kreativ ko'nikmalaridan foydalanib, mijozlari uchun ajoyib, ixcham dizaynlarni ishlab chiqadilar.	**Landshaft dizayneri**
Ekologlar universitetlar, davlat idoralari va dala stansiyalarida faoliyat olib borib, bizga jonli mavjudotlar va ular yashaydigan muhitni asrashni o'rgatadilar.	**Ekolog**

Muhandislik va Sanoat

Qurilish muhandisi	Qurilish loyihalarini tuzish va ularga rioya qilish orqali qurilish muhandislari atrof muhitimizni shakllantiradilar. Ular qurilish loyihalarini o‘z vaqtida va byudjet doirasida amalga os hiradilar.
Burg‘ulash muhandisi	Burg‘ulash muhandislari quruqlikda va dengizda qazib olinadigan yoqilg‘ini qidirish, qazib olishning ilk bosqichlarida faoliyat yuritib, neft va gaz konlari aniqlangan hududlarda burg‘ulangan quduqlarni loyihalashtirish va o‘rnatish bilan shug‘ullanadilar.
Kimyogar muhandis	Xom ashyolarni yangi kimyoviy jarayonlar orqali qo‘llanish usullarini o‘rganib, kimyo muhandislari tijorat foydasi uchun yangi moddalar va mahsulotlarni ishlab chiqadilar.
Muhandis-mexanik	Harakatlanuvchi qismlarga ega bo‘lgan har qanday jism – mexanik soatdan tortib poyezd lokomotivigacha – muhandis-mexanik tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, muhandislik fanlari orasida eng keng tarqalgan sohalardan biri hisoblanadi.
Avtomexanik	Avtomexaniklar o‘zlarining amaliy ko‘nikmalari va bilimlaridan foydalangan holda avtotransport vositalari doim harakatda bo‘lishlari uchun ularni diagnostika qilish, mavjud nosozliklarni bartaraf etish va eskirgan ehtiyot qismlarini almashtirish bilan shug‘ullanadilar.
Elektrik muhandis	Elektr tizimlari va tarkibiy qismlarini loyihalash, tuzish va texnik xizmat ko‘rsatishda mutaxassis hisoblangan elektrik muhandislarning vazifasi – elektr quvvatini doimiy ishlab turishidan iborat.
Aloqa muhandisi	Aloqa muhandislari telefonlar, uyali aloqa tarmoqlari, radio va internet bilan ishlab, butun dunyo bo‘ylab telekommunikatsiya tarmoqlarining aloqada bo‘lishini ta'minlaydilar.
Aerokosmik muhandis	Samolyot va kosmik texnologiyalarga ixtisoslashgan aerokosmik muhandislar osmonda va undan tashqarida uchadigan transport vositalarini loyihalashtirish, qurish, sinovdan o‘tkazish va texnik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadilar.

Agar sizga narsalar qanday ishlashini o‘rganish va ularni takomillashtirishni yoqtirsangiz, ushbu sohada juda ko‘p potensial kasblar mavjud. Siz yangi mashinalarni yasash, tajribalar o‘tkazish yoki buning ortida turgan mexanizmni tahlil qilishingizdan qat’iynazar, siz kreativ, rejali va tartibli bo‘lishingiz kerak bo‘ladi.

Transport

Xalqaro sayohat yo‘nalishlari va savdo hajmi tobora o‘sib borayotganligi sababli transport sanoati butun dunyoda o‘sib borayotgan tarmoq hisoblanadi. Kasb imkoniyatlari – havo yo‘llari ekipaj a'zosi, avtomobil transporti haydovchisi, temiryo‘l mashinisti va dengiztransporti kapitani kabi kasblarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Samolyotni xavfsiz boshqarishda yo‘lovchilarning salomatligiga mas'ul bo‘lgan aviakompaniya uchuvchilari o‘zlarining uchish qobiliyatlari va tajribalaridan foydalangan holda sayohatchilarni tashishda qulaylik yaratadilar.	**Aviakompaniya uchuvchisi**
Dunyo bo‘ylab havo yo‘llaridagi harakatning tobora ko‘payib borishi osmonda xavfsizlikni ta'minlashda rejalashtirishni talab qiladi. Ushbu jarayonda asosiy rolni aviadispetcherlar bajaradilar.	**Aviadispetcher**
Xavfsiz safarlarni rag‘batlantiruvchi siyosatni ishlab chiqishda, transport harakati dispetcherlari transport tarmoqlari hamda ular xizmat ko‘rsatayotgan zamonaviy iqtisodiyotni harakatga keltirishda xizmat qiladilar.	**Transport harakati dispetcheri**
Ulkan konteyner kemalari, kruiz laynerlari va boshqa bir qator dengiz kemalarini boshqarishda kema kapitanlari kemaning dengizda xavfsiz harakatlanishi uchun javobgardir.	**Kema kapitani**
Tezyurar poyezdlar yoki yuk tashuvchi lokomotivlarni boshqarishdan qat'iy nazar, temir yo‘l mashinistlari temir yo‘l tarmoqlarida yo‘lovchilar va yuklarni xavfsiz tashuvchi malakali mutaxassislardir.	**Temir yo‘l mashinisti**
Oziq-ovqat mahsulotlari, konteynerlar, mebellar yoki kimyoviy moddalar kabi bir qator yuklarni yetkazib berishda – yuk mashinasi haydovchilari avtomobilda yuk tashish tarmog‘ining tayanchi hisoblanadi.	**Yuk mashinasi haydovchisi**
Yuk tashuvchi haydovchilar, ombor xodimlari va yetkazib beruvchilarning ishlarini muvofiqlashtiruvchi logistika menejerlari mahsulotlarni kerakli manzilga, namunali holatda va o‘z vaqtida yetib borishini ta'minlaydilar.	**Logistika menejari**

Qurilish

Arxitektor	Binolarni loyihalashtirishda oldingi o‘rinlarida ishlaydigan arxitektorlar o‘zlarining kreativ ko‘nikmalari va texnik bilimlardan foydalanib, uylardan tortib konsert maydonlariga qadar barcha turdagi inshootlarni loyihalashda ishtirok etadilar.
Muhandis konstruktor	Yuklama va kuchlarning konstruksiyalarga ta'sir qilishini modellashtirish orqali, muhandis konstruktorlar o‘zlarining tajribalaridan foydalanib, binolar xavfsiz hududlarda loyihalashtirilishi va qurilishni ta'minlaydilar.
Smeta tuzuvchi muhandis	Qurilish usullari, xarajatlari va materiallari haqidagi bilimlarga asoslanib, smeta tuzuvchi muhandislar qurilish loyihalarini samarali va tejamkor bajarilishini ta'minlaydilar.
Shaharsoz	Rejalashtirish siyosati masalalari bo‘yicha maslahatlar berish uchun arxitektura va shahar dizayniga oid batafsil ma'lumotlardan foydalangan holda, shaharsozlar shaharlarimizni shakllantirish va rivojlantirishga yordamberadilar.
Quruvchi	Uylar va ofis binolaridan tortib elektrostansiyalar va osmono‘par binolarga qadar quruvchilar qurilish texnikalari haqidagi bilimlaridan foydalanib, noldan boshlab inshootlarni yaratadilar.
Qurilish boshqaruvchisi	Qurilish boshqaruvchilari grafiklarni rejalashtiradi, ishchilar ustidan nazorat qiladi va har bir loyihani o‘z vaqtida, byudjet doirasida bajarilishini ta'minlash maqsadida binolarning qurilish bosqichlarini kuzatadilar.
Duradgor	Turli xil yog‘och mebellar yoki konstruksiyalar – oshxona mebelidan tortib shift to‘sinlariga qadar elementlarni yasab va birlashtirib – duradgorlar bir qator qurilish loyihalarida ishlaydilar.
Elektrik	Elektr energiyasi uylar, idoralar va tijorat binolarida uzluksiz yoqilishini ta'minlash maqsadida, elektr jihozlarini xavfsizlik qoidalariga muvofiq o‘rnatadilar va ta'mirlaydilar.
Santexnik	Har xil turdagi xavfsiz va yashashga yaroqli bo‘lgan binolarga xizmat ko‘rsatishda santexniklar isitish, suv ta'minoti, havoni tozalash tizimlarini o‘rnatadilar va ta'mirlaydilar.

Dunyo miqyosida keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan ulkan tarmoq hisoblangan qurilish sanoati mahalliy va tijorat mijozlarning talablarini qondirish maqsadida doimiy ravishda malakali kadrlarni yetkazib berilishni talabqiladi. Agar sizga amaliyishlarni bajarish yoqsa, ushbu sohaning bir qator kasb turlari mavjud.

Xavfsizlik va Favqulodda xizmatlar

Agar siz odamlarga va jamiyatga yordam berishda faol ishtirok etishni istasangiz, xavfsizlikva favqulodda xizmatlar sohasida keryera sizga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Ushbu sohadagi ba'zi ish o‘rinlari mahalliy va xalqaro sayohatlarni o‘z ichiga olib, ularning barchasi faol yondashuvni hamda odamlar bilan ishlashga tayyorgarlikni talab qiladi.

Harbiy xizmatchi	Vatan himoyasini bosh maqsad qilib belgilab olgan harbiy xizmatchilar sodiqlik, burch, hurmat, fidokorona xizmat, sharaf, vijdonlilik va shaxsiy jasoratni hamma narsadan ustun qo‘yadilar.
Havo kuchlari uchuvchisi	Havo kuchlari uchuvchisi muhim va potentsial xavfli topshiriqlarni bajarish uchun texnik nou-xau va maxsus ko‘nikmalardan foydalangan holda o‘z vatanining havo sarhadlarini himoya qiladilar.
Harbiy dengizchi	Harbiy dengizchilar dengizda, havoda va quruqlikda o‘z vatanining suv sarhadlari va yo‘llari erkinligini ta'minlashda sharaf, jasorat va sadoqatni qadrlaydilar.
Huquqni muxofaza qilish xodimi	Halollik, vijdonlilik va tirishqoqlik bilan jamoatchilikka xizmat qilib, huquqni muxofaza qilish xodimlari jinoiy faoliyatni to‘xtatishda, jinoyatlarni ochish va butun jamiyatni yaxshilashga yordam berish uchun ishlaydilar.
Ahloq tuzatish muassasasi xodimi	Qamoqxonalardagi mahbuslar faoliyatini nazorat qiluvchi ahloq tuzatish muassasasi xodimlari tartibni saqlaydilar va mahkumlarning jazoni o‘tash vaqtidagi tartibni qo‘llab-quvvatlaydilar.
Razvedka xodimi	Milliy xavfsizlik masalalarini o‘rganuvchi mutaxassislar ya’ni razvedka xodimlari fuqarolarni himoya qilish maqsadida turli xil vositalardan - maxfiy kuzatuvdan tortib ma'lumotlarni nazorat qilishga qadar foydalanadilar.
O‘t o‘chiruvchi	Aholi va ularning mol-mulkini yong‘inlar, tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalardan himoya qilishda o‘t o‘chiruvchilar xavfli vaziyatlarda qolgan odamlarga yordam ko‘rsatish uchun o‘z xavfsizligini xavf ostiga qo‘yadilar.
Tez yordam xizmati xodimi	Favqulodda vaziyatlar chaqiruvlariga tez yordam javob berib, tez yordam xizmati xodimlari turli xil jarohatlar yoki kasalliklarga chalingan odamlarga shoshilinch yordam ko‘rsatish uchun tibbiy tayyorgarlikdan foydalanadilar.

Ijtimoiy soha va Ta’lim

Psixolog	Insonlarning xulq-atvori, hissiyotlari va fikrlash jarayonlarini tahlil qilish uchun ilmiy usullarni qo‘llagan holda psixologlar psixologik holatlarni davolash usullarini ham taklif qiladilar.
Ijtimoiy masalalar maslahatchisi	Bir qator xulq-atvor va suhbatlashish usullaridan foydalangan holda, ijtimoiy masalalar bo‘yicha maslahatchilar mijozlariga shaxsiy masalalari va muammolarini o‘rganish, tushunish va ularni yengishga yordam beradilar.
Ijtimoiy xizmatchi	Kasalxonalar, maktablar va qamoqxonalar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydigan ijtimoiy xizmatchilar qiyin paytlarda yordam, qo‘llab-quvvatlash va maslahat berib odamlarning hayotini yaxshilaydilar.
Yoshlar bilan ishlash xizmatchisi	Yoshlarga o‘z salohiyatlarini oshirishga yordam beradigan yoshlar bilan ishlash xizmatchilari bolalar va o‘spirinlar uchun bir qator tadbirlarni o‘tkazadilar, ularga maslahat beradilar va yordam ko‘rsatadilar.
Internat xizmatchisi	Internat xizmatchilari pansionatlarda ishlab, keksa yoki betob bemorlarga g‘amxo‘rlik va dalda beruvchi sharoitlarda qarashlarini ta'minlaydilar.
Bolalar tarbiyachisi	Bolalar tarbiyachisi o‘zlarining qaramog‘idagi yosh bolalarga qiziqarli mashqlarni tashkil etish, hikoyalar o‘qib berish va o‘yinlar o‘ynatish orqali o‘rganishga undovchi asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradilar.
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalarga boshlang‘ich ta'limni yaxshi o‘zlashtirishlari hamda ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishni rag‘batlantirishda darslarni qiziqarli va quvnoq tarzda o‘tishga izlanadilar.
Umumta’lim maktab o‘qituvchisi	Kommunkativ qobiliyatlari, bolalarni tushunish va hazil-mutoyiba tuyg‘usiga ega bo‘lgan umumta’lim maktab o‘qituvchilari o‘quvchilarga ilhomlantirish orqali bilim berishda o‘zlarining bilim va ko‘nikmalaridan foydalanadilar.
OTM o‘qituvchisi	Universitetda ishlash jarayonida professor-o‘qituvchilar bakalavriat yoki magistr mutaxassisliklari talabalariga ta’lim berishda ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishda ko‘maklashadilar.
Kutubxonachi	Ilmga bo‘lgan ishtiyoq bilan kutubxonachilar xalq, universitet va institut kutubxonalarida, shuningdek, tobora ommalashib borayotgan onlayn elektron kutubxonalarda to‘plangan kitoblar katalogini tuzadilar, saqlaydilar va foydalanishga sharoit yaratadilar.

Ushbu sohadagi kasblar odamlarga g‘amxo‘rlik qilish, o‘qitish, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali alohida shaxslar, oilalar, guruhlarva butun jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgan. Agar siz boshqalar bilan ishlashni yaxshi ko‘rsangiz va yaxshi muomala madaniyatiga ega bo‘lsangiz, bu sohadagi kasblar siz uchun to‘g‘ri kelishi mumkin.

Sport, Servis va Turizm

Jahon iqtisodiyoti o‘sib borishi bilan sport-sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, xizmat ko‘rsatishga bo‘lgan global talab yildan yilga oshib bormoqda. G'ayrat, mukammal muloqot qobiliyatlari va odamlarga bo‘sh vaqtlarini maroqli o‘tkazishlariga ko‘maklashadigan ushbu kasb egalari talabi ortib borayotgan sohada faoliyat yuritadilar.

Professional sportchi	G‘aroyib sport qobiliyati bilan ajralib turadigan professional sportchilar tanlagan sport turi bo‘yicha eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilish harakati bo‘lgan, eng kuchlilar bilan raqobatlashish uchun haq to‘lanadigan baxtli kasb egalaridir.
Shaxsiy murabbiy	Sport va sog‘lomlashtirish - bu tez taraqqiy etayotgan soha bo‘lib, unda mashq rejalarini ishlab chiqadigan va o‘z mijozlariga yuqori darajadagi jismoniy qomatga erishishda yordam ko‘rsatuvchi shaxsiy murabbiylarga talab ortib bormoqda.
Kosmetolog	Massaj va tirnoq bezatish san'atidan tortib, yuzni pardozlash va spa muolajalarga qadar kosmetologlar mijozlarining doim yaxshi ko‘rinishda bo‘lishlari uchun eng yangi texnika va mahsulotlardan foydalanadilar.
Mehmonxona menejeri	Mehmonxonalar mijozlar uchun bir-biri bilan raqobatlashadigan ushbu sohada mehmonxona menejerlari o‘zlarining mehmonlarining dam olish vaqtini imkon qadar qulay va yoqimli qilishga intiladilar.
Sayyohlik agentligi xodimi	Mijozlar nomidan sayohat agentliklari, aviakompaniyalar va dam olish maskanlari bilan doimiy aloqada bo‘lib, sayyohlik agentlari o‘z mijozlarining sayohat orzularini belgilangan byudjet doirasida amalga oshirishga intiladilar.
Havo kemasi ekipaji xizmatchisi	Samolyot bortida ishlaydigan havo kemasi ekipaji xizmatchisi yo‘lovchilarning xavfsiz, qulay va yoqimli parvoz qilishlarini ta'minlash maqsadida ularning ehtiyojlarini qondiradilar.
Oshpaz	Oshpazlar masalliqlarga va taom pishirish texnikasiga kreativ yondoshib, har bir likopchadagi taomni maromiga yetkazish uchun lazzatli taomni ishtaxali ko‘rinishda taqdim etishni birga birlashtiradi.
Muzey kuratori	Tarix, arxeologiya yoki san'at haqidagi bilimlaridan foydalangan holda, muzey kuratorlari o‘z kolleksiyasidagi eksponatlar va artefaktlarni tashrif buyuruvchilarni jalb qilish va ilhomlantirish maqsadida namoyish etadilar.

Sog‘liqni saqlash va Tibbiyot

Shifokor	Shifokor kasbi kasalliklarni aniqlaydi va jarohatlarni davolaydi, sog‘ligimizni himoya qilish uchun davolash usullarini tayinlaydigan tibbiy malaka va mahoratga asoslanadi.
Hamshira	Shifokorlar va boshqa malakali tibbiyot xodimlarga yordam beruvchi hamshiralar kasalxonalardan tortib salomatlik markazlariga qadar turli xil sharoitlarda bemorlarga amaliy yordam ko‘rsatib, davolashni amalga oshiradilar.
Feldsher-akusher	Homiladorlik va tug‘ruq paytidagi bo‘lg‘usi onalarga, homila davridagi bolalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatadigan feldsher-akusherlar dunyoga yangi hayotni keltirishda muhim rol o‘ynaydilar.
Stomatolog	Tishlar gigiyenasini targ‘ib qilishdan tortib, og‘iz bo‘shlig‘idagi rekonstruktiv jarrohlik operatsiyalarini o‘tkazishga qadar amaliyotlarda stomatologlar tish sog‘lig‘ini mustahkamlash uchun tish va tish milkida bir qator muolajalarni amalga oshiradilar.
Farmatsevt	Farmatsevtlar bemorlarga tegishli dori-darmonlar berilishini ta'minlab, retsept bo‘yicha va retseptsiz yozilgan dori-darmonlarni xaridorlarga sotadilar, shuningdek, ulardan foydalanishning xavfsizligi to‘g‘risida maslahatlar beradilar.
Rentgenograf	Rentgenografiya apparatlari yordamida rentgenograflar diagnostika o‘tkazish maqsadida tananing batafsil yoritilgan ichki rasmlarini yaratadilar, shuningdek, o‘simtalar yoki teri nuqsonlarini radioaktiv nurlari yordamida davolashni amalga oshiradilar.
Fizioterapevt	Massaj texnikasi, jismoniy mashqlar dasturlari va qo‘shimcha davolash bo‘yicha faoliyat yuritadigan fizioterapevtlar jarohatlar yoki kasalliklardan so‘nggi jismoniy reabilitatsiyani amalga oshirish ustida ishlaydilar.
Logoped	Nutqdagi muammolarga jarohat yoki tug‘ilishdagi nuqson sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish yoki nutqni rivojlantirish uchun logopedlar o‘z bemorlari bilan ishlaydilar.
Umumiy tibbiyot xodimi	Kasalxonalar, xususiy klinikalarda faoliyat olib boradigan umumiy tibbiyot xodimlari kasallik, jarohatlar, keksalik yoki nogironlik tufayli muhtoj bo‘lgan odamlarga amaliy yordam ko‘rsatadilar va kundalik muolajalar bo‘yicha maslahatlar beradilar.
Oftalmolog	Ko‘z qorachig‘i salomatligi ustida ishlaydigan oftalmologlar bemorlarning ko‘rish qobiliyatini tekshirish uchun maxsus jihozlardan foydalangan holda, zaruriyat tug‘ilganda ko‘zoynak yoki kontakt linzalarini yozadilar.tufayli muhtoj bo‘lgan odamlarga amaliy yordam ko‘rsatadilar va kundalik muolajalar bo‘yicha maslahatlar beradilar.

Sog‘liqni saqlashsohasi kasalxonalarda yoki poliklinikalarda turli rollarda faoliyat yuritadigan tibbiyot xodimlariga ega bo‘lgan yirik tarmoqdir. Agar siz sog‘lik va salomatlikni yaxshilashga qiziqsangiz, shuningdek, ilm-fan va texnologiyaga moyil bo‘lsangiz, sog‘liqni saqlash va tibbiyot sohasi kasblari siz uchun manzur bo‘lishi mumkin.

GLOSSARIY

Akademik soha - maktablar, kollejlar va universitetlar bilan bog‘liq, amaliy ko‘nikmalar bilan emas, balki o‘qish va fikrlash bilan bog‘liq. (Cambridge Business English Dictionary©)

QR-kod - biror narsaga chop etilgan, shuningdek, telefon foydalanuvchisiga ma'lumot berish uchun ba'zi turdagi mobiltelefonlar yordamida o‘qilishi (skaner) mumkin bo‘lgan oq-qora kvadratchalar jamlangan katakcha. (Cambridge Business English Dictionary©)

PDF (portable document format) - portativ hujjat formati: matnni o‘zgartirishga ruxsat bermaydigan kompyuterlar o‘rtasida hujjatlarni saqlash va jo‘natish tizimi yoki ushbu tizim yordamida yaratilgan hujjat. (Cambridge Business English Dictionary©)

Motivatsiya - biror narsa qilishga bo‘lgan ishtiyoq. (Cambridge Business English Dictionary©)

IT (information technology) - ma'lumotni saqlash va jo‘natish uchun kompyuterlar va boshqa elektron uskunalardan foydalanish fani va faoliyati. (Cambridge Business English Dictionary©)

Karyera - mehnat faoliyatingiz davomida bajaradigan ishingiz yoki bir qator vazifalaringiz. (Cambridge Business English Dictionary©)

Volontyor - o‘z xohishi bilan va majburlashsiz yoki pul to‘lamagan holda biror ish qilish, ayniqsa boshqalarga xolis yordam beruvchi odam. (Cambridge Business English Dictionary©)

LinkedIn – ish beruvchilar bilan muloqot qilish, yangi ish imkoniyatlarini topish, ma'lumot almashish va h.k. uchun ijtimoiy tarmoq veb-saytining nomi. (Cambridge Business English Dictionary©)

Facebook - o‘zingiz haqingizda ma'lumot ko‘rsatishingiz va do‘stlaringiz guruhlari bilan muloqot qilishingiz mumkin bo‘lgan veb-sayt nomi. (Cambridge Business English Dictionary©)

CV / rezyume - rasmiy tarjimai hol: ishga kirmoqchi bo‘lganingizda ish beruvchiga yuboradigan ma’lumotingiz, malakangiz, avvalgi ishlaringiz va ba’zan shaxsiy qiziqishlaringiz haqida qisqacha yozma tavsif. (Cambridge Business English Dictionary©)

PhD – falsafa fanlari doktori: eng yuqori akademik ilmiy daraja. (Cambridge Business English Dictionary©)

Konferensiya - ba'zan bir necha kun davom etadigan, ma'lum bir mavzu bo‘yicha suhbatlar guruhi yoki ayniqsa biznes masalalari rasmiy ravishda muhokama qilinadigan uchrashuv. (Cambridge Business English Dictionary©)

Logistika – murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli va samarali tarzda amalga oshirish uchun jarayonni reja bilan tashkil etish. (Cambridge Business English Dictionary©)

Nashrlar

1. Barrett, J. (2009). Aptitude, personality and motivation tests : analyse your talents and personality and plan your career. London ; Philadelphia: Kogan Page.
2. Careers The Graphic Guide to Finding the Perfect Job For You by DK Publishing
3. UCLA Career Center. A Planning Tool for Career Advancement
4. [ADB] Education Management Information System in Technical Vocational Education and Training English
5. KIEP Visiting Scholars Program Visiting Scholars' Opinion Paper - Crisis and Fragility: Economic Impact of COVID-19 and Policy Responses
6. Публикация «Стоимость ведения бизнеса в Узбекистане 2021»

Havolalar

1. https://www.lex.uz/
2. https://mift.uz/
3. https://www.unicef.org/uzbekistan/
4. http://uis.unesco.org/
5. https://chamber.uz/uz/index
6. https://mehnat.uz/oz
7. https://labormigration.uz/
8. https://edu.uz/uz/otm/index
9. https://bank.uz/uz/
10. https://abt.uz/
11. https://grad.unm.edu/resources/start-to-finish-unm/masters/ms-roadmap.html
12. https://novoresume.com/
13. https://zety.com/
14. https://www.indeed.com/
15. https://www.multitran.com/
16. https://www.careeraddict.com/school-leavers-guide-future
17. https://www.16personalities.com/tools/career
18. https://dictionary.cambridge.org/
19. https://www.myersbriggs.org/my-mbti-personality-type/mbti-basics/the-16-mbti-types.htm
20. https://www.educationfair.nl/market-reports/asia/uzbekistan/
21. https://www.enqa.eu/
22. https://www.norma.uz/oz/
23. https://minjust.uz/
24. https://hunar.uz/
25. https://handicraftman.uz/hunarmandchilik-markazlari/
26. https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2022/world-ranking#!/page/0/length/25/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/stats
27. https://www.shanghairanking.com/rankings/arwu/2021
28. https://www.topuniversities.com/university-rankings/world-university-rankings/2022
29. https://businessinfo.uz/index/business_plans
30. https://bshop.uz/biznes-plany
31. http://bplan.uz/index.php/ready-business-plans.html
32. https://www.reliablesoft.net/top-10-search-engines-in-the-world/
33. https://yoshlar.gov.uz/uz/privilege/
34. https://www.reliablesoft.net/top-10-search-engines-in-the-world/

Mazkur qo‘llanma Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti (UNESCO) tomonidan moliyalashtirilib, qo‘llab-quvvatlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” Davlat unitar korxonasi tomonidan amalga oshirildi.